

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

جدید

2025-yil 29-avgust
№ 35 (87)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

ISTIQLOLIMIZNING

34 yilligi

muborak bo'lsin,

aziz vatandoshlar!



HURRIYAT

BAYRAM SHUKUHI

Prezident “Renessans” ordeni
bilan taqdirlandi

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat
Mirziyoyevning taklifiga
binoan Iordaniya Hoshimiylar
Podshohligi Podshohi Abdulla
II ibn al-Husayn 25-26-avgust
kunlari davlat tashrifi bilan
mamlakatimizda bo'ldi.



Samarqand shahridagi Kongress
markazida ikki davlat rahbarining
muzokaralari bo'lib o'tdi. Diplomatik
munosabatlar tarixidagi ilk oliy
darajadagi tashrif ikki tomonlama
hamkorlikda yangi bosqichni
boshlab berishi va uni keng qamrovli
sheriklik darajasiga ko'tarishga
xizmat qilishi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Podshoh
Abdulla II tomonidan bundan 10 yil
oldin boshlangan “Aqaba jarayoni”
tashabbusini yuqori baholab,
navbatdagi yig'ilishlaridan birini Samarqand shahrida o'tkazishni taklif
etdi.

Samarali muzokaralar yakunida Sheriklik munosabatlarini
mustahkamlash to'g'risida qo'shma bayonot qabul qilindi va ikki
tomonlama 15 ta hujjat imzolandi.

Tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevni Iordaniyaning “An-Nahda” (“Renessans”) ordeni
bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

(Davomi 2-sahifada.) ➔

JARAYON



MULOQOT EHTIYOJI

Davlatimiz rahbari
tashabbusi bilan avgust
davomida yurtimiz bo'ylab
“Umummilliy birdamlik
festivali” o'tkazildi. Festival
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifati markazi, O'zbekiston
mahallalari uyushmasi, Oliy
Majlis huzuridagi Fuqarolik
jamiyati institutlarini qo'llab-
quvvatlash jamoat fondi,
“Ma'rifat” targ'ibotchilar
jamiyati, O'zbekiston
Yozuvchilar uyushmasi
hamda qator vazirlik va
tashkilotlar bilan hamkorlikda
tashkil etildi.

Ma'rifiy tadbir doirasida 150 ga
yaqin ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy
loyiha amalga oshirildi va 100
ming nafardan ziyod aholi qam-
rab olindi. Mazkur loyihalarga fan,
adabiyot, madaniyat va san'at

sohalari vakillari hamda “Ma'rifat”
targ'ibotchilar jamiyati a'zolari
jalb etildi. Ular orasida Narzulla
Jo'rayev, Abduxalil Mavrolov,
Jamila Shermuhammedova,
Zulfiya Mo'minova, Bobur Bobo-
murod, Farog'at Xudoyqulova,
Gavhar Zokirova, Zamira
Suyunova, Gulbahor Erqulova,
Turg'un Beknazarov, Alisher
Ro'zmetov, Aziz Rajabiy kabi o'z
sohasining ustalari borligi uchra-
shuvlarning ko'tarinki ruhda
o'tishiga sabab bo'ldi.

Ushbu festival manzillarini
tanlashda markazdan uzoqda
bo'lgan tuman-shaharlar, olis
qishloq va ovullar, yirik sanoat
korxonalari, harbiy qismlar,
shifoxonalar, “Muruvvat uylari”,
bolalar oromgohlariga alohida
e'tibor qaratildi.

(Davomi 8-sahifada.) ➔

IFTIXOR



“AVAZA”NING OVOZASI

Bugun dunyo qalqib turibdi. Mushtdek
zaminning turli puchmoqlarida gohi
notinchlik, gohi tortishuv va janjallarni
eshitib, televideniya ko'rib, to'g'risi,
boshidan qattiq kunlarni o'tkazgan,
qahatchilik zamonlarni ko'rgan bizdek
mo'ysafidlar yurak hovuchlab o'tiradi.
Insoniyat uchun bu olamda tinchlik va
xotirjamlikdan ko'ra buyukroq ne'mat
yo'q. Xotirjam odam bunyodkorlik ishlari,
ijod va san'at bilan mashg'ul bo'ladi.
El-yurtida, oilasida tinchligi bo'lgan
odamning yegan luqmasi tomog'idan

o'tadi, ichiga tushadi. Yuzlari yorishadi,
ruhi orom olib, jismi turli marazlardan xoli
bo'ladi.

Men bugungi Yangi O'zbekistonning
ma'naviy ob-havosi har qanday inson
qalbiga orom berishini, bunyodkorlik bilan
shug'ullanish imkonini taqdim etayotganini
kuzatib, behad quvonaman. El-yurtimiz,
xususan, Prezidentimiz haqiga ezgu duolar
qilaman. “Yomg'ir bilan yer ko'karadi, duo
bilan el”.

(Davomi 2-sahifada.) ➔

MUNOSABAT

“UZILMAS TORLARIM, SINMAS SOZLARIM!”

Kuni kecha otamning so'nggi kunlari
kechgan, beqiyos asarlari yozilgan,
bir-biridan shirin, aziz xotiralarga
guvoh bo'lgan qadrdon hovlida
taqdirlash marosimi o'tkazildi. Hozirda
To'ra Sulaymon nomidagi muhtasham
uy-muzeyga aylantirilgan xonadon
hovlisida otamizning salobatli
haykali qo'r to'kib turibdi. Shu yerda
to'plangan muxlislar, hamqishloqlar
va yor-u do'stlar guvohligida mas'ul
shaxslar Prezident farmonini o'qib
eshittirdi hamda yuksak mukofotni
menga tantanali ravishda topshirdi.
O'sha lahzada qalbimda iftixor va
g'urur tuydim, bir vaqtning o'zida
otamni juda sog'inib ketdim.

Albatta, muzey joylashgan ko'cha,
qishlog'imizdagi 19-sonli maktab,
Guliston markazidagi amfiteatr otam
nomi bilan atalishi, zamonaviy uy-
muzeyi barpo etilishi, muazzam haykali
qad rostlashi, shuningdek, adabiyot
ixlosmandlari uchun qimmatli bo'lgan
asarlarning salmoqli adadlarda qayta
chop etilishi bizni xursand qiladi. Turli
adabiy yig'inlarda ham otamizning milliy
adabiyotga qo'shgan munosib hissasi
alohida urg'u bilan ta'kidlanadi. Har yili
ko'klamda uy-muzeyimizda “Ketma,
bahor, mening bog'imdan” shiori ostida
adabiyot bayramining o'tkazilishi an'anaga
aylangan.

Tantanada opam Zarifa Musulmon-
qulova, Guliston davlat universiteti
professori Ravshanbek Mahmudov,

Yozuvchilar uyushmasi Sirdaryo viloyati
bo'limi rahbari Noriniso Qosimova,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi
Abdunabi Boyqo'ziyev, “Ishonch” gazetasi
mxbiri Bahor Xolbekovalar otam haqida
samimiy xotiralarini o'rtoqlashdi. Uning
mustabid tuzum davrida ham haq so'zni
ayta bilgani, “Ergash Jumanbulbul o'g'li el
kezadi” turkumi, o'lmas asarlari va xalqona
she'rlari yodga olindi.

Ko'pchilikka ma'lumki, Hukumat qarori
bilan viloyatimizning chekka hududida
go'zal ma'naviy maskan – O'zbekiston
xalq shoiri To'ra Sulaymon uy-muzeyi
tashkil etildi. Bugun ushbu uy-muzey
nafaaqat oilamiz, balki butun xalqimiz uchun
o'zgacha ziyoratgohga aylangan. Ayni
chog'da bu yerdan adabiyot muhiblarining
oyog'i uzilmaydi: turli hududlardan,
tashkilotlardan adabiyotsevarlar kelib,
otamiz hayoti va ijodi bilan yaqindan
tanishyapti.

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni-
ning berilishi otamiz xotirasiga ko'r-
satilayotgan yuksak ehtiromning yana bir
yorqin ifodasi bo'ldi. U kishi shu eldan
so'z olgan, kuch olgan, ruh olgan, yurtini
hamisha ardoqlagan chinakam shoir
edi. Davlatimiz tomonidan berilayotgan
bunday e'tibor, e'tirof, yurtdoshlarimizning
samimiy hurmati, mehri otam To'ra
Sulaymon shaxsining xalqimiz qalbidan
alohida o'rinni olganidan darak beradi.

Mirza SULAYMONOV,
Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati
Kengashi deputati

VATAN MANZUMASI



Baxtiyor GENJAMUROD,
O'zbekiston xalq shoiri

Jonimsan, O'ZBEKISTONIMSAN!

Tan og'rib, qon ko'pchib, ingranadi jon
Yalang oyog'imga sanchilsa tikan.
O'zni sendan o'zga sanamadim men,
Tanimsan, qonimsan, jonimsan, Vatan!

Tan – ko'zga ko'ringan savlatim mening,
Qonim-chi, jonimga, ruhimga maskan.
Alqovga so'z yetmas vasfingni sening,
Tanam ichindagi tanimsan, Vatan!

Million yil sahrada chechaklar sochgan
Sir, Surxon, Zarafshon, O'kuzdaryosan.
Momom jelagiga jig'adek sanchgan
Binafsha gulimsan, dilimsan, Vatan!

Jon – Alloh ne'mati: biz uchun iqbol,
Erkin ruh – insonni yuksaltirgan sha'n.
Xalqimning kamoli, baxti Istiqlol,
Jonim ichindagi jonimsan, Vatan!

Baxtim kuldi mening, davlatim keldi,
Qadrim baland bo'ldi.
Shavkatim keldi,
Dunyoga chiqishga navbatim keldi,
O'zbekistonimsan, shonimsan, Vatan!

(Davomi 2-sahifada.) ➔





Boshlanishi 1-sahifada.

BAYRAM SHUKUHI

Mukofotlar topshirildi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan mukofotlangan shaxslarga faxriy unvon, orden va medallarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari barchani, avvalo, Mustaqillik bayrami bilan tabriklar ekan, mamlakatimizda erishilayotgan natijalarning asosi, sa'y-harakatlarning mohiyati haqida alohida to'xtaldi.

– O'tgan sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz shiddat bilan o'sib, 115 milliard dollarga yetdi. Bugun bitta raqamni birinchi marta aytmoqchiman: Xalqaro valyuta jamg'armasi prognoziga ko'ra, bu yil iqtisodiyotimiz hajmi 130 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Ya'ni, ilgari bunday o'sish, bunday yuksak e'tirof hech qachon bo'lmagan, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bunday natijalarga tadbirkorlik keng qo'llab-quvvatlanayotgani, zamonaviy sanoat majmualari barpo etilayotgani, "yashil" va innovatsion iqtisodiyotga o'tilib, muqobil energiya manbalari yaratilayotgani, axborot texnologiyalari, turizm va moliyaviy texnologiyalar kabi xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlantirilayotgani zamin bo'lmoqda.

Yurtimizda zamonaviy shaharlar qad ko'tarmoqda, qishloq va mahallalar obod bo'lmoqda. O'tgan sakkiz yilda aholi uchun 500 mingga yaqin kvartirali ko'p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu mustaqillikning dastlabki 25 yiliga nisbatan to'rt karra ko'p. Mahalla infratuzilmasini yaxshilash, qishloqlarni, yo'llarni obod qilish uchun 60 trillion so'm mablag' sarflandi. Yoki, 130 milliard dollar xorijiy sarmoya kirib keldi, 100 mingdan ortiq investitsiya loyihalari ishga tushirildi, 7 milliondan ziyod aholi daromadli bo'ldi.

Shu muddatda ijtimoiy infratuzilmaga oldingi yillarga nisbatan olti karra ko'p mablag' yo'naltirildi. Natijada bog'cha o'rinlari 720 mingdan 2,5 millionga yetkazildi. 466 ta yangi maktab qurilib, 1 million o'quvchi o'rni yaratildi. Talabalar soni 279 mingdan 1,5 million nafarga oshirilib, oliy ta'limda qamrov 42 foizga olib chiqildi.

Prezident joylarda davlat mukofotlarini qabul qilib olayotgan vatan-doshlarimizni ham tabrikлади.

Yangi aeroportga tashrif

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-avgustda "Toshkent-Sharqiy" aerodromi negizida barpo etilgan yangi aeroportni borib ko'rdi.

Aeroportning umumiy maydoni 561 gektar. 4 kilometr uzunlikdagi uchish-qo'nish yo'lagi va 3 ta harakatlanish yo'li yangilanib, eng og'ir samolyotlarni ham qabul qilish quvvatiga ega bo'ldi. 20 ta "havo kemasi"ga mo'ljallangan perron barpo etildi. "Boeing-787", "A-320" kabi samolyotlar, biznes-jetlar hamda vertolyotlar uchun angarlari qurildi. Bu ularning qishda iliq, yozda salqin saqlanishi va xavfsizligini ta'minlaydi.

Aeroportda VIP va soatiga 100 nafar yo'lovchini qabul qilish quvvatiga ega CIP terminallar bunyod etilgan. Muhimi, aeroport ICAO III-A toifasidagi ilg'or radiotexnika va meteorologiya uskunalari bilan jihozlanadi. Bu noqulay ob-havo sharoitlarida ham uchish va qo'nish imkonini beradi.

Ushbu obyekt qulay joylashuvi tufayli poytaxt va Yangi Toshkent shahri uchun muhim transport xabiga aylanadi.

O'zbekiston Milliy muzeyi qurilishiga tamal toshi qo'yildi

Muzey Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi shafeligida Yaponiyaning "Tadao Ando Architect & Associates" arxitektura byurosi hamda Germaniyaning "Atelier Brückner" kompaniyasi tomonidan loyihalashtirilgan.

Uning tashqi qiyofasi aylana, to'rtburchak va uchburchak shaklida bo'lib, Sharq va G'arb madaniyatini o'zida uyg'unlashtiradi. Majmua 3 qavatli muzey, 2 qavatli yerto'la hamda yordamchi binolardan iborat bo'ladi. Inshoot Xitoyning "CSCC International Construction" kompaniyasi tomonidan quriladi.

– Bu muzey uch ming yillik boy tariximizni odamlarga, dunyo hamjamiyatiga va kelajak avlodga yetkazadigan ilm-ma'rifat va madaniyat maskani bo'ladi, – dedi Davlat rahbari.

Bunday mahobatli muzey yurtimiz tarixida ilk bor barpo etilmoqda. Uning umumiy maydoni 40 ming kvadrat metr bo'ladi. Ko'rgazma zallari, kutubxona, restavratsiya laboratoriyalari va eksponatlarni saqlash xonalarida eng zamonaviy qulayliklar tashkil etiladi. Bundan tashqari, 4 ming kvadrat metr maydonda konferensiya zallari, auditoriya va restoranlar, bolalar maydonchalari joylashadi.

523 nafar shaxs afv etildi

Davlatimiz rahbari Vatanimiz mustaqilligi e'lon qilinganining 34 yilligini nishonlash arafasida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi.



Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan 523 nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning 195 nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, 147 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 87 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 94 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning 8 nafari chet el fuqarolari, 45 nafari ayol, 31 nafari 60 yoshdan oshgan erkak, 220 nafari yoshlar (shulardan 1 nafari voyaga yetmagan) hamda 15 nafari taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

O'z muxbirimiz

Boshlanishi 1-sahifada.

Ming yillardan beri tildan-tilga ko'chib kelayotgan bu hikmatning hayotiy ifodasini mendek yoshi ulug' insonlar o'z ko'zlari bilan ko'rib turibdi.

Nima demoqchiman? Adolatli, haqqo'y, ma'rifatparvar, olimparvar bir inson bo'lsa va u davlatni boshqarsa, nazarimda, jamiyat hayotining juda ko'plab jabhalari gullab-yashnaydi. Fuqaro halovatda yashaydi. Men muhtaram Shavkat Mirziyoyevni ko'p yillardan beri bilaman.

Yonma-yon birga ishlaganmiz ham. Shu jarayonlarda g'ayrat va shijoatiga, mehnatkashligi va yonidagi insonlarga nisbatan xolis hamda adolatli munosabatiga juda ko'p guvoh bo'ldim. Bugun esa bu inson fitratidagi ayni fazilatlar xalqaro ko'lamga ko'tarildi, Respublika xalqining turmush tarzidagi muammolarni adolatli hal etishda asosiy o'ringa chiqdi. Zotan, bu genial xislat, liderlik dunyo ahli tomonidan e'tirof ham qilinmoqda.

Buning isboti shuki, bir oy avval Turkmaniston Prezidenti qarori bilan "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ordeni – nufuzli xalqaro mukofot bilan taqdirlandi. Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bizning Prezidentga o'sha mukofotni taqdim etayotgan mahali, to'g'risi, beixtiyor ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi. Ayniqsa, Prezidentimiz bu berilgan mukofotni o'zbek xalqiga atalgan siylov-mukofot ekanini aytganlarida, garchi oyoqlarimda biroq og'riq bo'lsa ham, sekingina o'rnimdan ham turdim, qarsak ham chaldim, to'g'risi.

Chunki "Hoy" desa ovozi yetib borib-yetib keladigan yaqin qo'shni mamlakatlarning rahbarlari o'zaro yaqinlik, og'a-inilik, qon-qardoshlik ildizlarini har on eslab turishsa, nazarimda, bugungi globallashtirgan zamonda eng oqil va dono siyosat aynan mana shudir.

Kechagina yurtimizning rahbari yana Turkman

xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov taklifiga ko'ra Turkmanistonga – Avazaga bordi. Bu safar uch mamlakat – O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon respublikalari o'rtasidagi jiddiy masalalar muhokama qilindi. Menimcha, bu uchrashuv ham har uchala mamlakat uchun juda muhim bir anjuman, albatta. Rahbarlarning yuzi-ko'zlarida, OAVga bergan intervylardagi so'zlarida samimiyat, mamuniyat yaqqol sezildi.

Men o'z vaqtida davlatlararo o'tkaziladigan bunday anjumanlar ishtirokchisi bo'lganman. Ayniqsa, mamlakat miqyosidagi hujjatlarni imzolash, kelajakda ularni hayotga tatbiq etish – oson ish emas. Rasmiy hujjatga imzo qo'yilgandan keyin uning mas'uliyati bo'ladi. Rasmiy hujjat – bu bir parcha qog'ozdagi yozuv, imzo va muhr. Ammo shu bir parcha qog'ozda insonlarning hayot yo'lga, tirikchiligiga, mamlakatlar obodligiga taalluqli juda ko'p masalalar o'z ifodasini topgan bo'ladi. O'tgan uchrashuvlarda ta'lim sohasiga e'tibor tufayli Toshkentda juda ko'plab turkmanistonlik talabalar ta'lim ola boshlashdi. O'zbek olimlarining bilimi, qalb nuri qo'shni respublikadan kelgan yoshlar shuurini yoritib boshladi. Ma'rifat yoshlarni birlashtiradi. Ikki yil oldin Ozarbayjon Respublikasining Fuzuliy shahrida Prezidentimiz ozarbayjon o'quvchilariga yurtdoshimiz, koinotshunos alloma Mirzo Ulug'bek nomidagi maxsus maktabni qurib sovg'a qildi. Bu ham mehr va muruvvat hosilasi sanaladi. Maktabga, ta'limga, ilm-fanga berilgan e'tibor ortidan og'ir va yengil sanoat, turizmning turli yo'nalishlari asta-sekin taraqqiy etadi. Dunyodagi barcha odil va dono rahbar o'z millati, xalqi farovonligi, tinchligini o'ylaydi.

Nazarimda, shu e'tibordan Turkmanboshi shahri yaqinidagi ulkan turistik maskanlardan biri bo'lgan Avazada tashkil etilgan xalqaro anjuman o'z qadr-qiyamatiga ega. Har uchala mamlakat rahbarlari Kaspiy dengizi bilan




Oqil SALIMOV,
akademik

bog'liq logistika va yuk tashuv masalalarini, qimmatbaho yer osti boyliklarini birgalikda o'zlashtirish, shuningdek, sanoatning bir qancha jabhalarida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarini muhokama qilishdi. Bunday ishchanlik ruhi bilan yo'g'rilgan muhokamalarning barchasi qardoshlik, qo'shnichilik, do'stlik, hamkorlik rishtalarining yana ham mustahkamlanishiga asos bo'ladi, albatta. O'zbekiston, Turkmaniston va Ozarbayjon Respublikalari rahbarlarining "Avaza" uchrashuvidagi o'zaro qon-qardoshlik va hamkorligining ibratona ovozi butun dunyoga tarqalishini tilayman.

Bizga shunday tole ato etgan Mustaqilligimiz bunyodkor xalqimizga muborak bo'lsin, doimo xushxabarlar yo'lidoshimiz bo'lgay, deb duo qilib qolaman!

DIL SO'ZI

Har qanday yurtning buyukligi, davlatning taraqqiyoti va millatning shuhrati, avvalo, ma'naviyatga tayanadi. Chunki ma'rifatsiz inson ham, millat ham – bir kun kelib o'zligini yo'qotishi tayin. Shuning uchun ham muhtaram Prezidentimizning barcha ijtimoiy-siyosiy islohotlari, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlari negizida aynan xalq ma'naviyatini yuksaltirish g'oyasi mujassamdirl.



TANSIQ UMR QADRI

Men sakson besh yoshga qadam qo'ygan, umrini adabiyotga bag'ishlagan bir mo'ysafid sifatida aytamanki, butun hayotim davomidagi navoiyshunoslik, boburshunoslik, matnshunoslik yo'lidagi kamtarona faoliyatim "Mehnat shuhrati" ordeni bilan siylangan qalbmni farah-u sururga to'ldirdi va mas'uliyatimni on qadar oshirdi. Bu orden – shaxsiy e'tirof emas, balki butun ilmiy jamoatchilikka, adabiyot ahliga, kitobxon xalqimizga berilgan yuksak e'tibor ramzidir.

Birgina orzum bor – elimiz, ayniqsa yoshlar mumtoz adabiyotimiz durdonalarini, so'z san'atining yuksak namunasi bo'lmish asarlarni o'zi anglaydigan, his etadigan tarzda mutolaa qilsin. Bu yo'lda barcha sa'y-harakatlarimni sahih matn yaratishga, asarlarning haqiqiy ma'nosini xalqimizga yetkazishga bag'ishlab kelyapman. Chunki har bir og'ish, har bir noaniqlik buyuk ajdodlarimiz merosiga xiyonat bo'lishi mumkin.

Millatimiz daholari – g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy va benazir shoir Zahiriddin Muhammad Boburning asarlari biz uchun nafaqat adabiy meros, balki umummilliy ma'naviyatimizning poydevoridir. Prezidentimizning ushbu ikki buyuk siymo merosini xalqimiz orasida keng targ'ib etish, uning serqirra ma'nolarini yosh avlod qalbiga singdirish haqidagi tarixiy farmonlari ijrosida kamarbasta bo'lish men uchun ham sharaf, ham muqaddas burchdir.

Hazrat Navoiy bejiz: "Alloh Odam bolasini ma'rifat uchun yaratdi", deb ta'kidlamagan. Bu so'zlardan shunday ma'no chiqadiki, insonning haqiqiy qiyofasi uning ilmida, ma'naviy dunyosida, kitobxonlik madaniyatidadir. Shu bois, har gai darsga kirarkan, talabalarimga: "Kitobxon bo'ling, ma'rifat yo'lini tanlang, qalbingizni adabiyot bilan boyiting", deyman.

Ne baxtim, butun umrim kitob soyasida o'tmoqda. Biz achchiq-chuchuk kunlarni ko'p ko'rdik. Yoshlarimizga "Bu tansiq umr qadriga yeting, minba'd armon ko'nglingizga soya solmasin", deymen. Humo qush boshimizda abad parvoz qilaversin!

Vahob RAHMONOV,
"Mehnat shuhrati" ordeni sovrindori

Jonimsan, O'ZBEKISTONIMSAN!



qalbm benihoya quvonchga to'ladi. Yangi O'zbekiston bunyodkori bo'lgan Prezidentim Berdaq bobomizning:

Yigit degan yaxshi, bilimdon bo'lar, Bilim, hunar yigit uchun jon bo'lar, Aqlsizlar ishi ko'p yomon bo'lar, Nodonlar hech xizmat qilmas xalq uchun, –

Boshlanishi 1-sahifada.

degan she'rini yod o'qiganlarida bag'oyat hayajonlanib ketganman.

O'tgan yili Prezidentim qarori bilan Ajiniyoz bobomiz tavalludining 200 yilligi O'zbekiston va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. O'zbek va qoraqalpoq tillarida Ajiniyoz asarlari nashr etildi, shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan badiiy film yaratildi va kinoteatrlar, san'at saroylarida namoyish qilindi.

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbuslari bilan o'zbek tilida nashr etilgan "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli yuz jildlik muhtasham kitoblar jamlanmasida qoraqalpoq mumtoz va zamonaviy adabiyoti namunalari besh jild ajratilgan. Unga mening dostonim va she'rilarim ham kiritilganidan boshim osmonga yetgan.

Qoraqalpog'istonlik piri badavlat otaxon va onaxonlar qo'llarini fohitahga ochgan har lahzada: "Prezidentimiz doimo sog'-omon bo'lsin, yurtimiz tinch bo'lsin, davlatimiz ziyoda bo'lsin, xalqimizning baxtiga ko'z tegmasin!" deya Xudodan so'rab duo qiladilar. Iloyo, duolari ijobat bo'lg'ay! Yuragimda jo'sh urayotgan minnatdorlik tuyg'ularimni, Prezidentimga va O'zbekiston xalqiga rahmatimni mana endi yeng shimarib, kelgusi ijod namunalarimda ifodalashga ahd qilib qo'ydim!



FORUM

So'nggi yillarda xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan doimiy muloqot o'rnatish, ularning mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.



UMMON ORTIDA HAM BAYRAM SHUKUHI

Nyu-York shtati Sirakuz shahrida O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi hamda "Vatandoshlar" jamoat fondi tomonidan "Vatandoshlar mintaqaviy forumi" ham ana shu ezgu maqsadga qaratilgan. Chunonchi, inson qayerda bo'lmasin, o'z Vatani sadoqat bilan xizmat qilishi, Vatan esa fuqarolarini hech qachon e'tiborsiz qoldirmasligi kerak.

Ushbu forum ham jamiyatimiz uchun nafaqat ma'naviy birlashuv nuqtasi, balki amaliyotda yangicha hamkorlik yo'llarini ochib beruvchi strategik maydon vazifasini o'tadi. AQSh va Kanadada istiqomat qiladigan uch yuz nafarga yaqin vatandoshimiz ishtirok etgan forumda Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita raisi Qahramon Sariyev nutq so'zlad.

Unda tadbirkorlik platformalarini yaratish, ekologik barqarorlik, sifati ta'lim kabi masalalarda o'zaro fikr-mulohaza almashish maqsadida ilmiy doiralarda vakillarining doimiy muloqoti "Uz Global Think" forumi orqali yo'lga qo'yilishi, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalar sohasida davlat siyosati Konsepsiyasining yangi loyihasi, akademik doiradagi shaxslar, ularning hayot yo'li, muvaffaqiyatlari, Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga xizmat qiladigan tavsiyalaridan iborat maqolalar joylab boriladigan "Who Is

“ Qayerda yashamasin, har bir vatandoshimiz – Vatanimizning ajralmas bir bo'lagi, uning ma'naviy elchisi, iftixori va umididir.

Shavkat MIRZIYOYEV

Who?" loyihasi xususida ma'lumot berildi.

Forumda xorijdagi vatandoshlarning O'zbekiston taraqqiyotidagi roli va hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi, talabalar, ishbiarmon-tadbirkorlar, olimlar va boshqalarning vatan bilan bog'liqligini yanada kuchaytirish masalalarida fikrlar, takliflar o'rta tashlandi.

Shuningdek, "Ta'lim va innovatsion iqtisodiyot" shobasida yoshlar salohiyati va ta'lim tizimida hamkorlik masalalari, "Raqamli texnologiyalar va integratsiyalashuv" shobasida axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklar, raqamli xizmatlar va transmilliy integratsiya imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyat yo'nalishida milliy merosni asrab-avaylash, madaniy aloqalarini kengaytirish, jamiyatda o'zbeklar imijini yuksaltirish bo'yicha fikr almashildi.

Sirakuz forumi milliy diplomatiya, iqtisodiy hamkorlik, madaniy intellektual quvvatni birlashtirgan muhim voqeadir.

Forum doirasida nafaqat Nyu-York, balki AQShdagi nufuzli oliygohlardan biri hisoblangan Sirakuz universiteti bilan hamkorlikda talabalar almashinuvi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, professorlar ma'ruzalari yo'lga qo'yilishi masalalari muhokama qilindi. Bu yoshlarimiz uchun ulkan imkoniyat, Vatanimiz ta'lim tizimi uchun esa tajriba va innovatsiyalar manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Forum nafaqat diaspora hayotini birlashtirdi, balki O'zbekistonning xalqaro siyosiy nufuzini mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

Bekzod SHUKUROV,
Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita raisining o'rinbosari



QARDOSHLAR QUTLOVI

EL-YURT FAROVONLIGI YO'LIDA BIRDAMMIZ!



Serikbay USENOV,
O'zbekiston qozoq milliy madaniy markazi raisi:

– Muhtaram Prezidentimiz Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida "Dunyoning turli mintaqalarida milliy va diniy asosda turli nizolar davom etayotgan hozirgi o'ta tahlakali sharoitda yagona O'zbekiston g'oyasi asosida eng katta boyligimiz – yurtimizdagi osoyishtalik va barqarorlik, o'zaro hurmat va totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bilim-ma'rifat, kasb-hunarlar egasi etib tarbiyalash, inklyuzivlik tamoyillarini chuqurlashtirish borasidagi ishlarni mizni kelgusida ham izchil davom ettiramiz", deya ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonda millat, dini, e'tiqodidan qat'i nazar barcha yurtdoshlarimiz uchun yashash, ta'lim olish, mehnat qilish, davlat va jamoat hayotida faol ishtirok etish uchun teng sharoit yaratilgan. Mana shu jannatmonand yurt farzandlarining biri sifatida qozoq millati vakillari ham tinchtotuv, do'stlik va birodarlikda farovon hayot kechirmoqda.

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi o'zaro hamjihatlik, do'stlik muhitini mustahkamlash, uzoq-yaqin davlatlar bilan Vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi yo'lida kengaytirilayotgan aloqalarga biz ham baholi qudrat hissa qo'sha olsak bundan cheksiz baxt hissini tuyamiz.

Bugun yurtimizning har bir g'o'shisi obod maskanga aylanmoqda. Hali Vatanimiz bundan-da rivojlanib, yuksak natijalarga erishadi. Biz jips bo'lib harakat qilsak, oliy maqsadimizga albatta erishamiz.

Shu fursatdan foydalanib, barcha bovuurdoshlarimni bayram bilan tabriklayman!

Mobil MAMEDOV,
O'zbekiston ozarbayjon milliy madaniy markazi raisi:

– O'zbek va ozarbayjon xalqlari o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik rishtasining tarixiy ildizlari ming yilliklarga borib taqaladi. Til, madaniyat, an'analari o'rtasidagi yaqinlik bugungi hamkorligimizning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Ikki do'st davlatning Prezidentlari tomonidan olib borilayotgan siyosat ijtimoiy-siyosiy, madaniy, adabiy munosabatni yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo'lmoqda.



Ikki xalq o'rtasidagi do'stlik haqida gapirar ekanmiz, Navoiy va Fuzuliyning ma'naviy ustozshogirdlik rishtasini, Abu Ali ibn Sino ta'limini olib yirik olim bo'lib yetishgan Bahmanyor Ozarbayjoniyning shuhratini, XX asr boshidagi jadidlar tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan ta'lim va san'at sohasidagi hamkorlikni eslamay bo'lmaydi. O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning quyidagi satrlari ham bejiz yozilmagan:

*O'zbekman, anglamay qayoqqa bordim,
Shu inja ozariy tilni, zabonni.
Do'stlik bu – muhabbat yangilig' farahkim,
Bilgay u na hadni va na dovonni.
Vurg'unning she'ri deb jon cheksa o'zbek,
Ozar ham ayarmi G'afuridan jonni...*

O'zbekiston mustaqilligining 34 yilligi bilan barcha qardoshlarimizni muborakkob etaman! Ikki yelkadosh xalq hamkorligi abadiy bo'lsin!



Gulandom SUBHANOVA,
O'zbekiston tojik milliy madaniy markazi raisi:

– Mamlakat mustaqilligi bu shunchaki bayram emas, bu muqaddas izdihomdir. Har yili yurtimizda turli tadbirlar va bayramlar o'tkaziladi. Lekin Vatanimiz Mustaqilligi kuni alohida g'urur va sharaf bilan nishonlanadi.

Sababi, O'zbekistonda bugun turli millat vakillari tinch-totuv, osoyishta va farovon hayot kechirishmoqda.

Ularning davlat va jamoat ishlarida faolligi, Vatan taqdiriga befarq emasligi barchamizga g'urur bag'ishlaydi.

O'zbek-tojik xalqlari azaldan bir daryodan suv ichib, qadriyat va an'analari mushtarak bo'lgan el hisoblanadi.

So'nggi yillarda mintaqamizdagi davlatlar o'rtasidagi do'stona aloqalar yangi bosqichga ko'tarilib, dunyo siyosatida "Markaziy Osiyo ruhi" degan ibora paydo bo'ldi. Shu yil mart oyida O'zbekiston – Qirg'iziston – Tojikiston chegaralari o'zaro tutashgan nuqtada "Do'stlik" stellasini o'rnatilgan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganidan yana bir yorqin dalolatdir. Axir, "ikki tilda so'zlashuvchi bir xalq" degan ta'riflar bekorga aytilmagan va bu hayotda o'z isbotini topmoqda. Buning qadriga yetishimiz, Vatanimiz ravnaqiga o'z xissamizni qo'shishimiz zarur va shart!



Guldon AVEZDURDIYEVA,
O'zbekiston turkman milliy madaniy markazi rahbari:

– Barchamizga ma'lumki, millatlarning urf-odatlari, an'ana va qadriyatlarini, tillari bir-biridan farqlanadi. Lekin O'zbekistonda yashab kelayotgan biz – turli millat va elat vakillarining maqsadi bir – tinch, osoyishta, xotirjam, o'zaro totuv, ahil bo'lib yashash.

Respublika turkman madaniy markazi hamda 200 mingdan ortiq turkman millatiga mansub fuqaro shu tabarruk diyor taraqqiyoti yo'lida mehnat qilib, tinchlik va xotirjamlikda istiqomat qilib kelmoqda.

O'zbek-turkman xalqlari azaldan do'st-u birodar bo'lib yashashgan. Qiz olib-qiz berishgan, qon rishtalari bog'langan. Bu rishtalar bugun ikki do'st davlat rahbarlarining oqilona siyosati tufayli yanada mustahkam bo'lib borayotir.

Qaysiki davlatda millatlararo munosabatlar mustahkam ekan, u yurt, albatta, ravnaq topgusidir. Yaqinlashib kelayotgan muqaddas bayram – Mustaqilligimizning 34 yilligi barchamizga qutli bo'lsin! Birdamlik va hamqadamlik barqaror bo'lgay!

Zarnigor IBROHIMOVA
yozib oldi.

MAMNUNIYAT

OTAM HAYOTINING MAZMUNI

Men professor Begali Qosimovning kenja farzandiman. Otamning o'zbek adabiyoti oldidagi, xususan, jadidlik tadqiqoti borasidagi xizmatlarini asta-sekin anglab bormoqdaman. Chunki Begali Qosimovning aynan o'zbek matbuotidagi adabiy-ijtimoiy maqolalari yuzasidan tadqiqot olib borib, dissertatsiya himoya qildim.

Otam 60-yillar avvalida hali atroflicha o'rganilmagan, juda chigal bo'lgan davrdagi bir adabiy siymo, ya'ni Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodi bo'yicha diplom ishini yozadi. Keyin esa, "Mirmuhsin Shermuhamedov (Fikriy) va uning adabiy muhiti" mavzusida nomzodlik

dissertatsiyasini himoya qiladi. Shu-shu jadidlar davri, adabiyoti, teatri, madaniyati, tili, siyosati otam uchun umr mazmuniga aylanadi.

O'tgan asrning 80-yillarida himoya qilgan doktorlik ishini mavzusi "O'zbek inqilobiy poeziyasining maydonga kelishi va taraqqiyoti" deb nomlanadi. Avroraning to'plari haqida tashbehlar bitilayotgan, yetti otasini unutayotgan davrlar... Tabiiyki, bunday davrda jadidlik, yangilik, milliy o'zlik kabi atamalarini qo'llab bo'lmas edi. 1983-yilda otam "Izlay-izlay topganim" kitobini chop etadi. Bu asarda yangi nomlar, to'g'rirog'i, unutilgan, millatimiz gullari bo'lgan 86 nafar ma'rifatparvarning ijodi va biografiyasi haqida ilk ma'lumotlar beriladi.

Kechagiday esimda, O'zbekiston mustaqillikka erishganda rahmatli otam juda suyungan. Otam o'rgan-gan davrni shundan keyin o'z nomi bilan ataydigan, qo'rqmasdan katta auditoriyaga mos materiallarni tayyorlaydigan, eng asosiysi, istiqlo, hurlik, ozodlik tuyg'ulari ota-bobolarimizdan merosligini tortinmay ayta oladigan bo'lgan edi.

Ammo shunday davrlar bo'ldiki, "jadid" so'zini tilga olish imkoni bo'lmadi, Begali Qosimov nomi matbuotda taqiqlandi. Shu bois ba'zan onam nomidan va ko'pincha "Bek Muhammad Murod", "B.Qosimbekov" imzolari bilan maqolalarini nashr qilishda davom etdi. Chunki u kishi uchun shaxsiy obro'dan ko'ra manfaatli

materialning xalqqa yetib borishi muhim edi.

Otam qiyinchiliklardan biron marta nolganganlarni eslolmayman. 60 yillik yubileyida dunyodagi eng baxtli insonlardan biri ekani ta'kidlagan. Negaki, shunday Vatanda tug'ilganidan, o'zi sevgan kasbda ishlashdek baxtga musharraf bo'lganidan baxtiyor edi. Hatto, qiyin damlarda xorijda, to'kis sharoitda ishlash takliflari tushganda ham yurtini, universitetini, sevimli talabalarini ko'zi qiymadi. Taniqli shoirimiz Abdulla Oripov do'sti Begali Qosimov taqdiri haqida shunday degan edi: "Begali unutilayotgan, tuproq va loyga qorishib ketgan jadid bobolarimizni artib, tozalab, avaylab ommaga olib chiqdi..."



Otam vafotiga 21 yil bo'ldi. Haqiqat yuz ochdi, bugun otamizning mehnatlari e'zoz topayotganidan bag'oyat mamnunmiz. Butun oilamiz, qarindosh-urug'lar, hamkasblar ham xursand.

Yurtboshimiz tomonidan "Fidoko-

rona xizmatlari uchun" ordenining taqdim etilgani otamning umr mazmuni uchun berilgan siylov, albatta. Oilamiz nomidan muhtaram Prezidentimizga samimiy minnatdorigimizni bildiramiz.

Shohruh QOSIMOV



SURUR

FAXR VA BURCH



Bobur YO'LDOSHEV,
“Diydor” teatr-studiyasi
badiiy rahbari

Men shu buyuk yurtida tug'ilganimdan hamda O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev va O'zbekiston xizmat ko'rsatgan artist Rimma Ahmedovaning farzandi ekanimdan faxrlanaman. Bu iftixor o'z navbatida “Shu maqomga loyiqmanmi? Ota-onamga qanchalik rahmat keltiryapman?” degan savollarni qo'yadi oldimga.

San'atsevarlarga ma'lumki, “Diydor” teatr-studiyasini 2009-yili otam tashkil etgan va umrining oxiriga qadar rahbarlik qilgan. Bu studiya ko'plab iste'dodlar uchun kashfiyotlar maydoni bo'lgan va hozirgacha shunday bo'lib kelmoqda. Shu sababli ham “Diydor”ga rahbarlik qilish zimmamga ikki karra mas'uliyat yuklaydi. Teatr faoliyatida yangi va yaxshi yo'llar kashf qilishga intilaman. Xuddi ota-onamdek san'atga fidoyilik bilan xizmat qilishga, bor imkoniyatlardan unumli foydalanishga harakat qilaman. “Diydor” teatr-studiyasi faoliyatida xalqimizga manzur bo'ladigan ijod namunalari ko'paytirish asosiy maqsadim va bunga erishish yo'lida jamoamiz bilan hamisha izlanishdamiz.

Yurtboshimizning e'tibori oilamizga, “Diydor”chilarga, umuman, san'at ahliga kuch-quvvat, ishonch bag'ishladi. Bizni yangi ijodiy parvozlariga ilhomlantirdi. Shu ma'noda, otam tamal toshini qo'ygan teatr faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga astoydil harakat qilaman. Bahoni esa doimgidek tomoshabin beradi.

Eng ulug' va eng aziz Bayram barchamizga muborak bo'lsin!



Shuhrat YO'LDOSHEV
(Shuhrat DARYO),
“Do'stlik” ordeni
sovrindori

Davlatimiz rahbari yuksak ishonch bildirib, meni “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlaganlaridan boshim osmonga yetdi. Bu mukofot birgina menga emas, butun ijodiy jamoamizga berilgan deb o'ylayman. Chunki bir qo'shiqning yaralishi, kishilar qalbiga yetib borishi ortida ko'pgina ijodkorlarning, qalam ahlining, mahoratli bastakor va sozandalarning mehnati yotadi.

Oxirgi yillarda yurtimizda madaniyat va san'atga katta e'tibor qaratilyapti. Yangi teatrlar, konsert zallari qurildi. Shu imkoniyatlardan foydalangan holda “Turkiston”, “Xalqlar do'stligi” san'at saroylarida va shu kabi yirik sahnalarda kuylash baxtiga muyassar bo'ldim. Har gal tomoshabinlar qarshisiga chiqqanimda menga jo'r bo'lib kuylayotgan muxlislarning samimiy tabassumini ko'rib, o'zimni baxtli his qilaman.

Bugun barcha ijodkorlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilgan. Yangi san'at maktablari barpo etilyapti. Yosh iste'dodlar uchun tanlovlar va festivallar tashkil qilinayapti. Bu, albatta, mustahkam Yurtboshimizning san'at va madaniyatga qaratayotgan beqiyos e'tibori va g'amxo'rligining yaqqol namunasidir. Bunday qulayliklar va sharoitlar bizga samarali ijod qilish, xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitish, hordiq kunlarini yanada mazmunli o'tkazish imkonini beradi. Aslida, san'atkor uchun eng katta rag'bat bu – elning mehri. Ammo undan ham yuksak mukofot tinch-osoysishta yurtning ardoqli kuychisi bo'lishdir. Chunki xalqimizda bir gap bor, tinch yurtga to'y-yu tantanalari, bayramlar yarashadi.

Bu orden menga yanada katta mas'uliyat yukladi. Endi bundan ham yaxshiroq, samimiy va sermazmun asarlar yaratishim kerakligini his qildim.

Avvalo, Davlatimiz rahbariga, menga ishonch bildirgan ustozlarim va yelkadosh hamkasblaringa, eng muhimi, doim meni ko'llab-quvvatlab kelgan muxlislarga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Yurtimiz tinch va farovon, Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

MULOHAZA

Xorazmda biron yengil mashina olsa, qutlab borganda aytiladigan “O'tlovi uzoq bo'lsin!” iborasi mazmuni ulovning o'ziga va egasiga uzoq umr tilamoqdir. Qadim bobolarimizga ot ham ulov, ham yo'ldosh vazifasini bajargan bo'lsa, texnika taraqqiyoti zamonasida uning o'rnini yengil mashinalar egalladi. Inson bolasi borki, o'ziga ulov olmoqni orzu qiladi. Imkoni bori ham, yo'g'i ham.



“O‘TLOVI UZOQ BO‘LSIN!”

Yodimda, 1966-yili otam traktor-chiligi uchun kolhoz beradigan ish haqini (aslida, aynan 1966-yil 1-iyuldan kolxozchilarga ish haqi pul bilan to'langan, ungacha “ish kuni”ga bug'doy tarqatishgan) ro'zg'orga zo'rg'a yetkazib yurgan bo'lsa-da, tashlandiq yerlarni o'zlashtirib, sholi ekib, gurunchini Buxoroga eltib sotib va yana bog'imiz ortidagi jiydalarni terdirib, qo'shnilaridan ham bir necha tonna jiydani arzonroq olib Boku shahrida sal qimmatroq pullab, to'plagan puliga “Ural” rusumli aravachali mototsikl xarid qilgan. Bu mototsiklni Bokudagi bir do'kondan olganlar va bizga ikki haftadan so'ng poyezd orqali yetib kelgan.

Otam salkam qirq uyli elatimizda birinchi bo'lib ulov – mototsikl olgandi. Quvonchimizdan ko'klarga uchib yurgan paytimizda to'sat otamni prokuraturaga chaqirib qolishgan. Otam kechqurun mahzun qiyofada qaytgan va tergovchilar “Bu mototsiklni qaysi pulingga olding?” deb rosa ezishganini aytib bergandi.

Ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi bo'lgani uchun necha yil rayqo'm va ijroqo'mlarga qatnab, navbatga yozilib, va nihoyat, 1981-yili “Moskvich” mashinasi oldi. Mashinani rayqo'm byurosi “mehnat ilg'origa mukofot” sifatida berdi, garchi pulini to'lagan bo'lsak-da. Otam bu paytda ellik xonadonga yaqinlashib qolgan elatimizda yengil mashina olgan birinchi kishi bo'ldi.

Keyinchalik kamina ham universitetni tugatib, avval tuman, so'ng respublika matbuotida ishlab, nihoyat, 1989-yili navbat orqali “Moskvich” yengil mashinasi olish baxtiga muyassar bo'ldim. Bu paytda elatimizda ikkitagina yengil mashina bor edi.

Kommunizm qurishni maqsad qilgan, har qadamda shunga monand chaqiriqlar ilingan sovet zamonida yengil mashina olish eng oliy baxt sanalardi. Garchi yengil mashinalar ishlab chiqarish sovet davlatida o'tgan asrning o'ttizinchi yillarida boshlangan bo'lsa-da, toki bu davlat tarix sahnasidan tushib ketguncha bo'lgan davrda aholisining besh foizini yengil mashina bilan ta'minlay oldi, xolos. SSSRda ishlab chiqarilgan yengil mashinalar rumusi, ot quvvati, xavfsizligi darajasi bo'yicha dunyodagi avtomobilsoz davlatlar ishlab chiqargan mashinalar orasida eng oxirgi o'rinlardan birini egallaganini ham qayd qilish kerak.

Yana bir ayanchli holat: SSSRda eng nufuzli yengil mashina “Volga” hisoblanib, u 9600 so'm turardi. Bunday mashinani xarid qilishga imkoni borlar ham uni ololmasdi – nazorat organlari siquviga tushardi. Shu sabab, lotereyasiga “Volga” mashinasi chiqqan odamni topib, bir yarim-ikki hissa ortiqcha bahoda sotib olish majburiyatida qolishardi. Lotereya yutug'iga chiqqan nimarsa nazoratdan tashqarida edi.

Esimda, to'qqizinchi sinfda o'qib yurgan kezarimizda “Hazaraspik bir do'konchi “Ford” mashinasi sotib olibdi” degan gaplar tarqaldi. Shu paytgacha “Ford” mashinasini chet el kinolarida ko'rganmiz, xolos. Hazarasp bozoriga borganda o'sha mashinani ko'rgan bir qo'shnimiz “Katta qayiqqa o'xsharkan” degan va hatto uni ushlab ko'rganini aytib maqtangan. Go'yo ertakdagi kabi noyob mashinani ko'rish uchun uch tenggur jo'ra Hazaraspga borganmiz va darrov topganmiz. Negaki, do'konlardan biri oldida tumonat odam to'planib turishgandi. O'sha yerga borsak, haqiqatan ham “Ford” mashinasi turibdi. Eskiligidan kuzovi yonlariga zang tushgan mashina diydoriga biror ellik odam to'plangan ekan. Bizga mashina yoniga borish, uni ushlab ko'rish nasib etmadi, egasi qandaydir ishi chiqqanini aytib, mashinani haydab ketdi...

Hozir yo'llarda yurgan yengil mashinalarning rusumini sanab adog'iga yetolmayman.

Bolaligimda eng ko'p eshitadigan so'zlarimdan birisi “ko'lik” so'zi edi. Kimdir tuman markaziga yoki qo'shni qishloqdan to'yga aytishsa, masofa uzoqligi uchun to'rt tomonga termilib, najot izlardir. Shu paytlarda “Ko'lik topilsa boramiz”, “Ko'lik bo'lsaydi, ishim yengil kechardi” kabi gaplar tilga olinardi. Ko'lik – ulov so'zining yana bir ko'rinishi.

...Yaqinda elatimizda bir yigit yangi rusumdagi qimmatbaho mashina olganida qutlab bordik. Uzoq yillar brigadir, fermer bo'lib ishlagan, hozir-da ko'chaboshilik qilayotgan Qodir Jumaboyev davrada qiziq raqamni keltirdi: “Bugun elatimizga kirib kelgan oltmishinchi mashinani “yuvyapmiz”. Bu borishda yaqin besh yilda yuzinchi mashinani ham “yuvamiz”.

Elatimizda hozir sakson ikki xonadon bor.

Yodimda, o'n yillar avval muharririmiz viloyatda jon boshiga eng ko'p yengil mashina to'g'ri keladigan bir qishloq haqida maqola tayyorlash

topshirig'i bergach, viloyat davlat avtomobil nazorati idorasidan shu haqida ma'lumot oldim. Unda bizga shundoq qo'shni – onam tug'ilgan maskan – “Dehqonobod” qishlog'i jon boshiga eng ko'p yengil mashinasi borligi qayd qilingan, ya'ni har yuz xonadondan oltmish bittasida yengil mashina borligi aytilgandi. Bu qishloq ahli uzumchilikka ixtisoslashgan. Xonadonlar chorbog'ida, qo'shimcha tomorqasida mahalliy “Toifi” navli uzum ekib, hosilini kuzda chet ellarga eksport qilishadi. Bunda o'zlari ovora bo'lib, chegara oshib yurishmaydi – kuz boshlamasida yuk mashinalari qishloqni bosib ketadi. Uzunmi sotgan odam pulini sanab charchamasa bo'lgani. Aynan ushbu qishloqda uzumchilik rivoj topgani sabab hozir ham Bog'ot tumani har yili chet ellarga o'rtacha 15 million AQSh dollari miqdorida uzum eksport qilmoqda.

Qishloq beshta mahallaga bo'lingan. Shulardan birisi – “Bog'iston” mahallasida xolavachcham fuqarolar yig'ini raisi bo'lib ishlaydi. O'tgan yili mahalladagi yengil mashinalar soni qanchaligi bilan qiziqdim. Rais taqdim qilgan ma'lumotnomada har yuzta xonadonga bir yuz beshta yengil mashina to'g'ri kelishi yozilgandi. Hatto ayrim xonadonlarda turli rusumdagi mashinalardan to'rtta-beshtasi bor ekan.

...O'tgan o'ttiz yilning nari-berisida bizning kichik elatda yengil mashinalar soni 30 baravar oshgani nimadan?

Birinchi, mustaqillik tufayli o'zimizda turli rusumdagi yengil mashinalar ishlab chiqarila boshlagani va bu jarayon yildan yilga kengayayotgani bo'lsa, ikkinchidan – asosiysi, odamlarning xarid quvvati oshgani, ya'ni ortiqcha daromad paydo bo'lgani.

Yaqinda e'lon qilingan rasmiy ma'lumotda yurtimiz aholisi ilkida 4,6 million dona yengil avtomobil qayd qilingan. Bu esa har yuz xonadonga nisbatan olganda yengil mashinalar soni so'nggi besh yilda uch hissa oshganini ko'rsatadi.

Bu hisobga korxona-tashkilotlar, muassasalar, firmalarning xizmat mashinalari, shuningdek, yuk va boshqa xizmatlar uchun mo'ljallangan turli rusumdagi ulovlar kirmaydi. Taxmini-mizcha, ularning soni ham milliontadan oshadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida e'lon qilingan bir ma'lumotda yurtimizda mavjud barcha yengil-u boshqa turdagi mashinalar soni 540 ming dona deb ko'rsatilgandi. Demak, o'tgan

davrra ularning soni o'n baravardan ko'proqqa o'sgan.

Yurtimizda aholining yarmiga yaqini shaharlarda yashashadi. Shaharda, ayniqsa, ko'p qavatli turar joylarda yashovchi aholi yengil mashina olishga unchalik ehtiyoj sezmaydi. Chunki ishiga, bozorga va boshqa joylarga borishida jamoat transporti mukammal ishlayapti, bundan tashqari kecha-yu kunduzning yigirma to'rt soati kirakashlar xizmatida.

Ijtimoiy tarmoqlarda “Falon yo'lda megatirbandlik” mazmunidagi xabarlariga kunora ko'zimiz tushadi. Buyam yengil mashinalar soni keskin ortgani bilan bog'liq. Shaharlar va hatto qishloq tumanlaridagi yo'llar sovet davrida yengil mashinalar soniga qarab loyihalashtirilgan. Mashinalar soni keskin oshgan hozirgi kunlarda bu yo'llarni kengaytirish oson emas. Sababi, yo'llarning har ikki chekkasidan aholiga imorat qurish uchun yer ajratilgan, boshqa binolar qurilgan. Ularni ko'chirish uchun turar-joylar qurish va tovon puli to'lash kerak...

Va yana ijtimoiy tarmoqlarda ba'zida mashinalarga benzin yoki metan quyish shoxobchalarida navbat vujudga kelganidan noliish kuzatiladi. Bozor siyosatida talab va ehtiyoj degan tushuncha bor. Mashinalar soni oshgani sari yoqilg'i va yonilg'iga bo'lgan talab ham o'sa boradi. 1985-yili o'qishni tugatib, ishga kelganimda, tumanda faqat ikki joyda mashinalarga yoqilg'i quyish shoxobchasi bor edi. Hozir ularning soni o'ttizdan oshgan.

...Ushbu maqolani yozib tugallay deganimda derazadan mototsikl ovozi keldi. Qarassam, qo'shni ayol zamonaviy mototsikl haydab ketyapti. E, dedim o'zinga o'zim, yengil mashinalar soni oshgani haqida gap sotib o'tiribman, bu yoqda so'nggi ikki-uch yilda deyarli har bir xonadonga tokda, benzinda yuradigan turli rusumdagi motorola, skuterlar kirib kelgani-chi?

...Ayrim noshukur bandalar “Mustaqillik bizga nima berdi?” degan piching gaplarni aytishdan uyalishmaydi. Bizga nima emas, nimalar bergani va berayotganini sanab o'tirishga vaqtim yo'q. Bittasini aytisam yetar: Istiqlolni o'ttiz to'rtinchi yiliga kelib poyi piyoda yuradigan odam deyarli qolmadi.

Qissadan hissa, shu kunlarga yetkazgan buyuk Mustaqilligimizning o'tlovi uzoq bo'laversin!

Ro'zimboy HASAN,
“Do'stlik” ordeni sovrindori

JAHON AYVONIDA

BOSH MUZOKARACHILAR AQSHDA

Ukraina prezidenti devoni rahbari Andrey Yermak va Ukraina Milliy xavfsizlik va mudofaa kengashi (NSDS) kotibi Rustem Umerov 29-avgust kuni Nyu-Yorkda AQSh prezidenti Donald Tramp jamoasi bilan uchrashadi. Bu haqda Ukraina prezidenti Vladimir Zelenskiy videomurojaatida ma'lum qildi.



Uning eslatishicha, avvalroq Yermak va Umerov urushni tugatish bo'yicha muzokara olib borish va unda vositachilik platformalarini muhokama qilib, Qatarda, keyin Saudiya

Arabistonida, 28-avgust kuni esa Shveytsariyada uchrashuvlar o'tkazishgan. “Juma kuni Nyu-Yorkda prezident Tramp jamoasi bilan uchrashuvlar kutmoqda”, dedi prezident.

ENG BALAND KO'PRIK



Xitoyda qurilayotgan dunyodagi eng baland ko'priknining po'lat kegaylari o'rnatib bo'lindi. “IT Home” nashriga ko'ra, barcha 93 ta kegay muvaffaqiyatli o'rnatilib, endi ko'priknini tutashtirish ishlari boshlangan.

Ko'priki Guychjou provinsiyasining Lyuchji-Anlun tezyurav avtomagistralidagi Xuatszyan katta kanyoni ustidan o'tadi. Ko'priknining qurilishi 2022-yilda boshlangan va uning ochilishi 2025-yilning sentyabriga rejalashtirilmoqda.



RUL VA PEDALSIZ ROBOTAKSI

Ilon Mask “Biz, robot” deb nomlangan tadbirida Tesla kompaniyasining so'nggi yutuqlari – odamsimon robot, rul va pedali bo'lmagan robotaksi va 20 kishilik sig'imiga ega “robofurgon”ni taqdim etdi.

Maskning aytishicha, Cybercab avtomobilida sayohat qilish oddiy mashinalarga qaraganda o'n baravar osonlashadi. Milliarder robotaksini lift bilan taqqoslagan – tugmani bosish kifoya va qolgan hamma narsani unutish mumkin.

PUTIN VA KIM CHEN IN HARBIY PARADDA QATNASHADI

Pekinda kelasi hafta Ikkinchi jahon urushi tugaganining 80 yilligiga bag'ish-

langan tantanali harbiy parad bo'lib o'tadi. Xitoy va Shimoliy Koreya davlat OAVlari xabariga ko'ra, tadbirida Rossiya prezidenti Vladimir Putin va Shimoliy Koreya yetakchisi Kim Chen In hamda 26 nafar xorijiy davlat rahbarlari qatnashadi.



“Sinxua” agentligi ma'lumotiga ko'ra, Putinning tashriifi Rossiya va Xitoy o'rtasidagi strategik hamkorlikning yuqori darajasini tasdiqlovchi voqea sifatida baholanmoqda. Shuningdek, parad arafasida Rossiya prezidenti 31-avgust – 1-sentyabr kunlari Tyantszinda bo'lib o'tadigan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammitida ham ishtirok etishi rejalashtirilgan.

INDONEZIYADA NOROZILIK NAMOIYISHI

Minglab indoneziyalik ishchilar Jakartada ommaviy norozilik namoyishi-lariga chiqqan. “PMAНовости” muxbiri-ni-xabar berishicha, namoyishchilar politsiyachilarga qaratatosh va mushaklar otmoqda, huquq-tartibot xodimlari esa ko'zni yoshlantiruvchi gaz bilan javob bermoqda.



Namoyishchilar mehnat sharoitlarini yaxshilashni va ish haqini oshirishni talab qilmoqda. Shuningdek, ular parlamentni tarqatib yuborishni ham istayapti.

E'TIROF

Uch yillik harbiy xizmatni mashhur Boyqo'ng'ir kosmodromida o'taganman. Sinov raketasini parvozga tayyorlash oson ish emasdi. Harbiy qo'mondonlik shtabida ishlaganim uchun qo'shni qismlar bilan ham aloqa qilib turardim. Bir kuni shu yerda oltiariqlik Abdusalom ismli yigit bilan tanishib qoldim. Adabiyotga qiziqadigan, musiqani yaxshi tushunadigan, rubob chalishga qo'li kelib qolgan yigit ekan, suhbatimiz tez qovushdi. Bo'sh paytlari birga dam oladigan, radio qo'shiqlar tinglaydigan bo'ldik. Abdusalom yoshligida onasi o'qib bergan Ibrohim Adham qissalaridan so'zlar, men esa harbiy xizmatni tugatishim bilan Toshkent universitetining jurnalistika fakultetiga kirib o'qish orzuimdan gap ochardim.

Men O'shda o'qib yurgan kezlariam yozgan kichik-kichik she'rlarimdan ayrimlarini Abdusalomga o'qib bergan edim, unga ma'qul kelib, "Ahmadjon, shu bizning Oltiariqda Anvarjon ismli bir yigit bor-da, she'rlar mashq qiladi, qo'li ancha kelib qolgan, mashqlarini yuborsa, ko'rib bermaysizmi?" deb qoldi. Bepoyon qozoq dashtining jaziramasida, yana harbiy kiyimda deng, Toshkent gazetolari bosmasa ham tinimsiz she'rlar jo'natib turgan navqiron ijodkor sifatida, "Mayli, yuborsin, o'qib ko'ramiz", dedim ustozlarga xos viqor bilan.

Oradan bir oy o'tar-o'tmas, Anvarjondan xat keldi. Besh-oltita she'r. So'zlari to'la yodimda qolmagan, ammo futbol to'piga bag'ishlangan she'rning ma'nosi quyidagicha: "Hamma bu to'pni oyog'i bilan ayovsiz tepadi, boshi bilan uradi, ko'kragi bilan turtadi, jahli chiqsa, maydondan tashqariga otib yuboradi, faqat darvozabongina mehribonlik bilan ikki qo'llab bag'riga bosadi, silab-siypalaydi..."

Sodda va ravon satrlar. Kulgili joylari ko'p. Bolalar uchun yozilgan boshqa she'rlarda uchramaydigan o'xshatishlar, ajoyib topilmalar. O'qib bo'lgach, Abdusalom ikkimiz ularni malakali mutaxassislarday ijdiiy tahlil qildik, uncha-muncha tortishuv, bahs ham bo'ldi. So'ng men yosh shoirga gazeta-jurnallardan menga keladigan javob xatlaridan foydalangan holda: "Hurmatli Anvar Obidjon, she'rlaringizni o'qidim, ba'zilar yaxshi chiqibdi. Yumoringiz bor ekan. Bolalar hayotini yaqindan biladiganga o'xshaysiz. Harakat qiling, ko'p o'qing, ustozlardan o'rganing, erinmang, shunday mashq qilishda davom etsangiz, kelajakda sizdan yaxshi shoir chiqishi mumkin", degan xat yozdim.

Harbiy xizmat tugaguncha ana shunday ma'noda xat olishib turdik. Oradan ko'p yillar o'tib, Farg'ona teatri binosida O'zbekiston xalq shoiri, bolalar uchun yozilgan yigirmadan ortiq badiiy asarlarning muallifi Anvar Obidjon tug'ilgan kunning 60 yilligi nishonlanganida, menga "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bosh muharriri sifatida so'z berishdi. Shoirning yubileyi bahonasida men o'sha kunlari vodiy tumanlarini zir aylanib, gazeta obunasi bilan shug'ullanayotgan, bir joyda ko'nglim ko'tarilib, bir joyda hafsalam pir bo'lib yurgandim.

Sahnaga ko'tarilib, so'zimni o'sha... harbiy xizmatdan Oltiariqqa yo'llagan xatlarimdan boshladim: "Hayot qizi q narsada, Anvar Obidjon bugun o'zbek bolalar adabiyotiga yangi havo olib kirgan, badiiy ifodada o'z yo'li va ovozigga ega taniqli shoir. Men esa oddiy muharrirman. Anvarjon o'shanda mening buyuk maslahatlarimga amal qilmaganida bormi, u bugun bu sahnada emas, menga o'xshab, qishloqma-qishloq yurib, tuman gazetasiga obuna uyushtirib yurgan bo'lardi..."

Zal kulgidan larzaga keldi.

Anvar Obidjon o'zining ta'biri bilan aytganda, bir muddat "ko'zga ko'rinmas, ammo mas'uliyati jiddiy mansab"larda jonbozlik ko'rsatib, hayotni kuzatdi, qalami-ni charxlab, ana undan keyin bo'lajak qahramonlari Gulmat hamrohligida yosh Meshpolvonni poytaxtga yetaklab keldi. Faqat shu emas, bo'lajak shoir poytaxt-ga Oltiariqning ochorli ovozi, o'zi ko'rgan-bilgan qanchadan qancha yurtdoshlarining ajabtovur xarakteri, uchirim-qochirimlari, askiya payrovlarini ham olib keldi. Tuman gazetasida uzoq yillar qalam tebratgani jurnalistika sohasida o'zini namoyon etishiga yordam berdi. Buni uning o'zidan eshitaylik: "Boshlang'ich sinfdaligimda she'rlar mashq qilardim. Ilk she'rlarimdan biri "G'un-cha" jurnalida bosilgach, o'zimni binoyidek shoir sanay boshladim, maktabdagilardan birortasi: "Ha, shoir", deb iljayib o'tsa, bu kesatiq ekanini sezib tursam ham, baribir, ich-ichimdan suyunib ketardim. Harbiy xizmatdan qaytib, kolxozda ishlab yurgan vaqtimda tuman gazetasiga kichik-

ANVAR OBIDJON

maktabi

kichik xabarlar yoza boshladim. Ustozlar she'rlarimning u yer-bu yeriga qalam tekki-zib chiqarishsa, uncha o'pkalamasdim, ammo eng "quyi tabaqali" gazetaning shumshaygan bir xodimi kelib-kelib mendek "shoir"ning maqolasini tahrir qilsa, peshonam tirishardi. Tumanimizdagi "Paxta uchun" gazetasiga ishga o'tganimizdan keyin anchagacha shashtimdan tusholmay yurdim. Jimjimador so'zlarni ocherk yoki lavhalarda me'yori bilan ishlatish mumkinligini, maqola esa imkon qadar jonli xalq tiliga yaqin bo'lishi, bunda bezancholikning darajasi emas, xabarining qimmatini muhim ekanligini anglagunimcha yana bir-ikki yil o'tdi.

1974-yili "Ona yer" degan birinchi kitobim chop etildi, hovrim ancha pasayib, shoirligimni ortiqcha pesh qilmaydigan bo'lib qoldim. Chunki, bu sohaning ichida yurib bilmimki, gazetada ishlaydigan bo'lsang, shoirlik jurnalistigingni ma'lum darajada to'ldirishi mumkin, lekin hatto eng zo'r shoir ham bu jabhada pishib yetilgan eng oddiy jurnalistning oldida hech kim emas".

O'zbek bolalar adabiyoti uzoq yillar turlicha saviyadagi badiiy ifoda bosqichlaridan o'tib keldi. Qizil mafkura beshigida bo'lsa-da, ulg'aydi. Yosh o'zbek kitobxonlarining she'r qanday yozilishi xususidagi tasavvuri Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Quadrat Hikmat, Tolib Yo'ldosh, Po'lat Mo'min kabi iste'dodli shoirlar ijodi asosida shakllangan va buni hech kim inkor etmaydi. Yutug'i ham, kamchiligi ham o'zimizniki. Ijodkor, u qaysi sohada bo'lmasin, albatta, o'z qarashlaridan kelib chiqadi. Ammo dunyo o'zgargani sari odamlarning turmush tarzi, o'y-xayollari ham o'zgarib boradi, kattalar bilan birga bolalar ham ulg'ayib, ko'z o'ngimizda beg'ubor nigohlari bilan dunyoga boqadigan, biz e'tibor bermagan narsalarni idrok etadigan, yaxshi-yomonning, rost va yolg'onning farqiga boradigan bo'lishadi.

Fikrimcha, o'tgan asrning yetmishinchi yillari mana shu muhim holatni bolalar



ortidan kelayotgan yoshlar ijodida bolalar dunyosi yangicha qiyofada ko'rina boshladi.

Anvar Obidjon poytaxt ijod muhitiga tez singdi, jahon adabiyotining bolalarga atalgan eng yaxshi namunalarini sinchiklab o'qidi. Ular qayta-qayta chop etilayotgani, bugun ham seviz o'qilayotgani sababini tushunishga harakat qildi. Yozuvchilar uyushmasidagi bir muhim yig'inda o'zini bolalar yozuvchisi deb yuradigan va shu maqomi bilan g'ururlanadigan ijodkor-ga: "Siz har yili kitob chiqarayotganingiz bilan emas, bolalar kitoblaringizdan nima olayotgani bilan faxrlaning", degani yodimda. Oradan ko'p o'tmay, Anvarjonning "Bahromning hikoyalari", "Masxaraboz bola", "Bezgakshamol", "Juda qiziq voqea", "Oltin yurakli avtobola", "Dahshatli Meshpolvon" she'riy to'plamlari, "Bulbulning cho'pchaklari", "G'alati maktablar", "Gurungdagi gaplar", "Ajoiyb-xona", "O'zimizning ansambl", "Shirin so'ylar jajjivoylar", "Kalamushlar kemasi", "Siz eshitmagan qo'shiqlar", "Osmondan tushgan sozanda" turkumlari kichik yoshli o'quvchilar qo'liga borib yetar ekan, o'shanda yuqoridagi anchayin achchiq gap behuda



aytilmagani, ijod maydonida bolalar uchun yangicha yozadigan iste'dodli bir qalam sohibi shakllanayotganidan dalolat edi.

Yangicha yozish nima degani? O'qiymiz: "Kalamushvoy, kalamush, savoding sal chalamish. Yoz desalar "temir" deb, sen yozibsan. "Kemor" deb", "Qarg'a kirdi kinoga, o'xshab Buratinoga. Hamma joylar edi band, borib dedi nopisand: "Menga qara, vey, Laylak, yeganmisan hech kaltak, qani turchi o'rningdan, he, o'rgildim burningdan".

O'tgan asrning saksoninchi yillari oxiriga kelib, o'zbek badiiy publitsistikasida shid-datli bir jarayon yuzaga keldi. Matbuot zimmasiga jamiyatda kechayotgan murak-kab jarayonlarni, yaqin o'tmishimizda sodir bo'lgan noxush, adolatsiz voqealarni haqqoniy yoritish, jamiyat a'zolarini yangi mustaqil davlat qurishdek yagona maqsad atrofida birlashtirish vazifasi yuklandi. Negaki, har qanday o'tish davrida jamiyat hayotidagi xush-noxush voqealarni sinch-kovlik bilan kuzatish, tahlil etish, bunda jamiyatning uyg'oq, fikrlovchi qatlamiga

tayanish ta'sirchan publitsistikaning o'ta kuchli vakolatiga aylanadi. Shunday bo'ldi ham. Publitsistika bu vazifani talab darajasida bajardi.

Ijodkor ziyolilar istiqlol manfaatlarini o'z uy, o'z oilalarini himoya qilganday himoya qilishdi. Gazetalarda o'tashin maqolalar e'lon qilindi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan ko'plab maqolalar asosida hukumat qarorlari qabul qilindi. Publitsistika umri tugab borayotgan eski tuzumning g'ayriinsoniy qadriyatlarini, soxta shiorlarini ayovsiz fosh qildi, millatni uyg'onishga, qizil saltanatning tanazzuli muqarrarligini, millat o'z taqdirini o'z qo'liga olishi mumkin bo'lgan buyuk imkoniyat eshik qoqayotganini anglashga chorladi.

Gazetaning faol mualliflari orasida Anvar Obidjon ham bor edi. Mustaqillikka erishish arafasida e'lon qilingan maqolasiga "Yo ahillik, yo quilik" deb sarlavha qo'ydi. "Muharrir do'stim, masalani mana shundoq, ya'ni ko'ndalangiga qo'yish kerak: yo bugungi imkoniyatdan foydalanib, erkin bo'lamiz, mustaqil davlatga aylanamiz, yo yana... zanjirlar saltanatiga qaytamiz", dedi.

Anvarjon bosiq, chuqur mulohazali ijodkor edi. Birdan jo'shib ketmasdi.

Anvarjon adabiyotga viodiyning noyob lutfini olib kirdi, bolalar she'riyatida mahora-t maktabini yaratdi. Nutqimizni go'zal iboralar, o'xshatmalar, tashbehtar bilan boyitdi. "Marg'ilonliklarning so'zlashuv madaniyati juda yuqori, — deb yozadi shoir "Farg'onaliklar" kitobida. — Bu shaharga chetdan kelib, sud idorasida ishlagan bir tanishim eridan ajrashmoqchi bo'lgan yosh juvonning so'zlash tarzidan lol qolganini menga gapirib bergan. Ayol arzini shunday bayon etibdi: "Xudo xayringizni bersin, bek aka, yarashing deb qistamasinlar mani. U kishim bilan birga yashashning qittak iloji bo'lsa, sizdek martabali zotning gapini yerda qoldirarmidim... Mayli, yana bir uylanib ko'rsinlar. Iloyim, yangi topgan xotinlari mandan sabrliroq, mandan ozodaroq chiqsin".

Marg'ilon Kumushbibi yurtligi yodingizga tushdimi?!

Ustoz Erkin Vohidov iste'dodli shogirdiga quyidagi to'rtlikni bag'ishlagan:

Shoir Anvar Obidjonga hazil she'r yo'q,
O'ylar, akam to'rt yo'l yozsa o'larmidi?
Uning o'zi to'pponcha-ku, har so'zi o'q,
Qurol bilan hazillashib bo'larmidi?!

Shoirning ijod olamini bugun adabiyot-shunos olimlar, yosh tadqiqotchilar zavq va qoniqish bilan tadqiq etmoqdalar. Bu ishni akademik Baxtiyor Nazarov boshlab bergan edi: "Anvar Obidjon she'rlaridagi badiiy go'zallik haqida gap ketar ekan, uning asarlarida shu xususiyatni keltirib chiqaradigan garmoniyanı alohida ta'kid-lash o'rinni bo'ladi. Bu garmoniya asoslarini Anvar Obidjon she'rlarida talqin etilayotgan ruhiy-hayotiy muammo ifodasiga eng aniq, tiniq, qisqa, ixcham, sun'iylikdan holi bayon, haqqoniylik va hayotiy obrazlilik tashkil etadi. Ular o'zining samimiyligi, ifoda yo'sini va ruhiyatdagi xalqonaligi, ayniqsa, milliyliigi, hatto, ma'lum ma'noda yodiyonaligi hamda barchasi juda soddaligi bilan ajralib turadi. Vatan haqida ne-ne she'rlar bitilgan. Lekin Anvar Obidjon Vatanning qisqa, mo'jazzgina, yangi talqinini topa oladi.

Dehqonvachcha shu Vatan

Ikkimizga onadir.

Tuprog'ining taftidan

Tovonimiz yonadi.

Biroq, munis shu ona

Ikkimiz-chun ikki zot:

Sen uchun u boshpana,

Men uchun u e'tiqod".

Anvar Obidjon adabiy tilimizni xalqona yo'lda yanada jozibali qilib boyitishga butun ijod umrini bag'ishladi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ikki qadrdon do'st — Tursunboy Adashboyev va Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotini keng ma'noda yangi sifat bosqichiga olib chiqishdi. Bolalarga qanday yozish kerakligini nasrda Xudoyberdi To'xtaboyev, nazmda shu ikki ijodkor namoyon qilishdi. Bolalarga xos jamiki xususiyatlar — quvnoqlik, zukkolik, quvlig-u shumlik, hozirjavoblik, hotamto-yu chapanilik, kattalarday fikrlashga harakat qilish Anvar Obidjon she'rlarining mag'zi edi. Ijodiy davralarda "Bolalarga yozish uchun ularni sevizh, tilini, dilini tushunish kerak", degan gapni ko'p takrorlardi. Bunga o'zi qat'iy amal qilgani bois, bolalar adabiyotida Anvar Obidjon nomi bilan bog'liq ijodiy maktab yuzaga keldi. Bu maktab saboqlarini o'tagan qanchadan qancha yoshlarning ijod namunalari ustoz o'g'itlari behuda ketmaganidan dalolat beradi.

Anvar Obidjon bolalar bilan birga kattalar uchun ham barakali ijod qildi. Asarlari asosida filmlar suratga olindi, spektakllar qo'yildi. Hajviy g'azallari, she'riy "uch chanoq'lari, hayvonlar, buyumlar, qushlar tilidan yozilgan maktablari kitobxonlar tomonidan zo'r qiziqishi bilan o'qiildi. Mam-lakatimiz maktablarida uning she'rlarini yod olmagani, kattalar orasida mulla Gulmatni tinimagan, "Farg'onada bittagina" qo'shig'ini tinglamagan muxlisni topish qiyin. Aslida, asl ijodkorning har bir asari kelajakka maktab sanaladi. Faqat uni o'qiy va uqiyla bilish kerak.

Prezidentimizning fidoyi adibimizni "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofot-lagani zamirida shu Vatan, shu xalq ravnaqi, ma'naviyati va ma'rifati uchun qilingan har qanday xolis mehnat, albatta, shuhrat topadi, e'tirof va e'tiborda bo'ladi, degan teran hikmatni angladim. Demak, biz ziyolilar Xudo bergan ijodkorlarimiz merosini kengroq targ'ib qilishimiz, yoshlarimizga izohlashimiz, murakkab hayot yo'llarini ibratli sharhlashimiz, indallo, so'z sehiri orqali ona tilimizga, ona xalqimizga mehr-u muhabbat tuyg'u-sini tarbiyalashga qamrovdor e'tibor qaratishimiz zarur ekan.

Ahmadjon MELIBOYEV



YANGI NASHRLAR

Zahmatkash olim, pedagogika fanlari doktori, professor Ulug'bek Dolimovning "O'zbekiston maktablari tarixi" kitobi "Muharrir" nashriyotining "Asliyat" ruknida chop etildi. Muallif bu mavzuni bejiz tanlamagan. O'zi ustozlar sulolasidan, jadid pedagogikasi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan, qariyb oltmish yil oliy ta'lim dargohlarida dars bergan.



“MANGU QUYOSH”:

TARIXIY HAQIQAT
va badiiy tafakkur chorrahasida

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali tarixiy mavzularda teran va keng qamrovli asarlar yaratishda yetakchi adiblarimizdan biri sanaladi. Uning “Ulug' saltanat” roman-epopeyasi, “Sarbadorlar” dilogiyasi, “Kleopatra” va “Abadiy sog'inchlar” singari tarixiy asarlari xalqimiz madaniy merosini o'rganishda muhim o'rin tutsa, yaqinda nashr etilgan “Mangu quyosh” romani adib ijodidagi yangi yutuqdir.

Alisher Navoiy obrazini yaratish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Navoiy nafaqat buyuk shoir va davlat arbobi, balki falsafa va madaniyatning tub ildizlariga chuqur singib ketgan, hanuz ko'p qirralarini ochishni talab qiladigan buyuk siymodir. Shu bois, bu sharif zot timsolida tarixiy, madaniy, falsafiy bilimlar bilan birga, o'sha zamonning siyosiy-ijtimoiy konteksti ham aniq aks ettirilishi zarur.

Muhammad Ali “Mangu quyosh” romanida aynan shu murakkab ishni uddaladi. U nafaqat Navoiy hayoti va ijodining chuqur psixologik va falsafiy qatlamlarini ochib beradi, balki o'sha davr voqealari aniq va jonli tarzda tasvirlaydi. Yozuvchi o'z asarida tarixiy haqiqatni badiiy noziklik bilan uyg'unlashtirib, o'quvchiga boy ma'naviy va madaniy merosni taqdim etadi. Bundan tashqari, Muhammad Ali Navoiy timsolini ko'plab madaniy va tarixiy stereotiplar orasidan chiqarib, yangi va obyektiv yondashuv bilan tasvirlashga muvaffaq bo'ldi.

“Mangu quyosh” asari shu ma'noda og'ir mehnat natijasi va tarixiy shaxslar timsolidagi insoniylilik, falsafiy teranlik va ma'naviy boylikni o'quvchiga yetkazishda muhim qadam bo'ldi.

Romanni o'qish jarayonida o'quvchi Navoiy dahosi qirralarini kashf eta boshlaydi: “Navoiy kim? Shoirimi, amirimi, muhurdormi, hokimmi, muqarrabi sultonmi, avliyomi?” Shoirning atrofidagi kishilar, Sulton Husayn, Badiuzzamon Mirzo, Shayxim Suhayli, Xondamir, Sultonali Mashhadiylar har biri o'z ko'nglida shu savolga javob topishga intiladi.

“Mangu quyosh” romanida diqqatimizni tortgan eng muhim jihat bu – Alisher

Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro o'rtaqidagi mustahkam do'stlik, sadoqat va hamfikrlik munosabatidir.

Bu ikki buyuk tarixiy shaxsning do'stligi o'zbek adabiyoti va tarixining eng yorqin sahifalaridan biridir. Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanida bu do'stlik o'zining eng samimiy va murakkab jihatlar bilan badiiy tasvirlangan. Kitobxon “Mangu quyosh”da nafaqat moziydagi voqealarni, balki insoniy munosabatlari va tarixiy shaxslarning ichki dunyosini ham his qiladi. Bu o'rinda yozuvchining eng katta yutuqi shundaki, tarixiy shaxslar faqat voqeikdagi tasvirlar bilan emas, ruhiy kechinmalari, ichki dunyolari bilan mutanosib jonlantirilgan.

Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtaqidagi do'stlik, avvalo, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan edi. Ular bir vaqtning buyuk ziyolilari, davlat arboblari va ijodkorlari sifatida bir-birining fikr va qarashlariga alohida e'tibor berishgan, fikr almashishgan.

Boyqaro va Navoiy orasidagi munosabatlar orqali ikki buyuk shaxsning murakkab va o'ziga xos ko'p qirralari ochib beriladi. Boyqaro – ziddiyatli siyosiy shart-sharoitlarda mohir arbob, o'z xalqining manfaati uchun kurashgan sarkarda va hukmdor sifatida gavdalansa, Navoiy ilm-fan, adabiyot va falsafa sohasidagi buyuk ustoz sifatida ko'rsatiladi.

Muhammad Ali “Mangu quyosh”da Navoiy va Boyqaroning o'zaro suhbatlarini juda jonli va tabiiy tarzda aks ettiradi. Ularning suhbatlari orasida, misol uchun, davlat boshqaruvi, adabiyotning maqsadi, inson ruhining sirli qirralari haqida teran fikrlar uchraydi. Bu suhbatlar nafaqat tarixiy kontekstda, balki zamonaviy kitobxon uchun ham qimmatli ta'limotlar, ma'naviy g'oyalarni taqdim etadi. Kitobxon mutolaa davomida, ularning fikrlarida o'sha davrning ijtimoiy, madaniy, ma'naviy muammolari va qarashlarini teran his qiladi.


Bundan tashqari, romanda Husayn Boyqaroning Navoiy ijodiga bo'lgan samimiy e'tibori, uni ko'plab-quvvatlashi ham yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan. Bu adibning tarixiy manbalar va badiiy talqinlarni uyg'unlashtirishga ustaligidan

dalolat. Boyqaroning Navoiyga bo'lgan ishonchi va muhabbati, shuningdek, ular o'rtaqidagi do'stlik ruhiy birlashuv va ijodiy o'sishga sabab bo'lgani kitobxon qalbida o'chmas iz qoldiradi.

Muhammad Ali bu do'stlikni tasvirlashda o'rta asrlar turkiy tilining o'ziga xos ohangini saqlagan, asar tili boy va rangin. Romandagi suhbatlar, qahramonlarning ichki fikrlari, hissiyotlari – bularning barchasi o'quvchini o'sha davr hayotiga chuqur sho'ng'ishga undaydi. Romandagi Navoiy va Boyqaro do'stligi haqidagi sahifalar tarixiy dalillar va badiiy tasvirlar bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtirilgan. Yozuvchi bu do'stlikni tarixiylik bilan badiiylar orasidagi nafis muvozanatda keltiradi. Adib muhim tarixiy voqealargina emas, kichik tafsilotlar orqali ham Navoiy va Boyqaroning qalb yaqinligini mahorat bilan ko'rsata olgan.

Bilamizki, Navoiy hamisha ko'pchilikni qiziqtirib kelgan o'z shaxsiy hayoti, masalan, ota-onasi haqida, kamtarlik yuzasidan, deyarli so'z yuritmagani. Shoirning biron yerda onaizori ismini yozmagani ham bunga dalil. Muhammad Ali esa shoir onasining ismini aniqlashda ulug' adib Oybek izidan boradi va uning “Bola Alisher” qissasida keltirilganday, muborak ismi “Gulbegim” deb ataydi. Bundan tashqari, u Badiuzzamon Mirzo, Mo'min Mirzo voqealari, Xadicha begim uyushtirgan saroy o'yinlarini mahorat bilan tasvirlab, Navoiyning hovlisi, undagi binafshazorni mehr bilan ta'riflaydi. Alisher suyukli yorini ilk bor ko'rganda, Bade'uljamol binafsharang ko'ylakda edi. Binafsha, binafsharang – asarda ramzga aylanadi. Suyuklisi olandan o'tgandan keyin shoir Unsiya hovlisini binafshazorga aylantiradi. Alisher Mashhadda Abulqosim Bobur bog'ida shunday binafshazorni ko'rgandi. Har kun ertalab bomo'd namozini ado etgan Navoiy binafshazorni aylanib, so'ng o'rtaqida supada o'tirib, ko'kka boqib Bade'uljamol bilan suhbatlashadi....

va ko'ngli taskin topadi. Bu odatga aylanadi, hajga borishdan oldin binafshazor bilan alohida xayrlashadi... Binafshalar boshlarini egib qoladilar... Yozuvchi Navoiyning haj safariga otlanganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlaydi.



laydi. Romanning “Olaning nuri” bobida shunday so'zlarni o'qiydiz:

“...Ilohi, men tavba qildim degandin bobodane sud, sen tavba bergilki, ham Tavvobsen-u ham Ma'bud...”

Ilohi...
Ilohi... Ilohi...
Tag'i...
Tag'i...

Haj safari davom etmakda.
Navoiy hali-hozir yo'lda ketmakda...
Hijoz tuprog'igacha yo'l uzoq...

Uning oxiri yo'q...
Yo'l uzoq...”

Navoiyning kim ekani haqidagi bahs butun asar davomida o'quvchi xayolidan ko'tarilmaydi. U amirimi, shoirimi, avliyomi, farishtami, yo'?

Lekin Navoiy ularga o'xshamasdi. U boshqacha edi. Sulton Husayn Navoiy haqida so'zlab, uning quyosh ekanini aytadi, hamisha kulib, jilmayib turadigan quyosh...

Hech qachon so'nmaydigan, olijanob va saxovatli mangu quyosh...

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Mangu quyosh” tarixiy romani, so'zsiz, o'zbek adabiyotini boyitgan asardir. Asar umummilliy bobimiz Alisher Navoiy siymosini, ichki olamini, murakkab hayotini mohirona ko'rsata olgan asar sifatida qadrlanishiga aslo shubha yo'q. Biz yoshi ulug' adibimizni shunday ajoyib, mag'zi to'q roman bilan qutlashga o'zimizni haqli sezamiz. Muborak bo'lsin!

“MUMKINMI?!”


O'tgan asrning 20-yillari Abdurauf Fitratning ilmiy-adabiy faoliyatida sermahsul davr sanaladi. Ilmiy-ommaviy ocherk deya ta'riflangan “Bedil” risolasi ayni shu davrda e'lon qilingan. Asar 1923-yili Moskvada yozilib, bir yildan so'ng Toshkentda chop etiladi.

Kitob buxorolik Qutlug' otlig' ziyoli yig'itning o'qishdan ta'tiliga chiqib, Moskvadan yurtga qaytishi, do'sti Rustam bilan suhbat-munozarasi orqali boshlanadi. Do'stona suhbat Hamid ismli yig'itning uyidagi jadidona mashvaratga ulanib ketadi. Syujetdagi bu o'zgarish bejiz tanlanmagan. Bu orqali muallif umummilliy mavzu bo'lmish hurriyat, ma'rifat masalalarini tor doirada gapirib yurgan bilan bir ish chiqmasligi, uni keng davralarda yakdillik asosida muhokama qilish, muammo va yutuqlarga jiddiy yondashish, ko'pchilik bilan kengashish kerakligini uqtirmoqchi bo'ladi.

Fitrat kabi ma'rifatparvarlar bir-damlikni maqsadga erishish yo'lidagi eng muhim omillardan biri deb bilgan.

Biroq besh qo'l barobar bo'lmaganidek, o'sha davrda jaholat botqog'iga botib, erksizlik zulmatida turtinib yurishni ma'qul ko'radigan toifalar ham bor edi. Ular Xizr uchraganda barchaning ko'r bo'lib qolishini tilagan so'qir kabi birdamlik, ma'rifat kabi saodat yo'lini ko'rsatuvchi mayoqlarga ziyon yetkazishni mo'ljallardi. Ulug' shoir Cho'lpon bu kabi xoinlarga shunday “xushxabar” yuborgandi: “qayg'uringiz: kishanlarni yasovchi ustalar, ...Sizning uchun yoz boshining qoridek eruv kunlar keladir, ...Chiqadigan quyoshni siz behuda Etak bilan to'smoq uchun tirishmang...”

Suhbat asosiga qurilgan “Bedil” risolasi Qutlug', Rustam, Bedil, Egamberdi, Mullo Qurbon kabi yosh ziyolilar gap-gashtak asnosida Bedilning devonidan o'rin olgan g'azal va ruboiylar orqali ijtimoiy-siyosiy muammolarni muhokama qilishadi. Shoirning “havosi buzulgan qorong'u zindonni buzub, tashqariga, ochiq havoga chiqish kerak”, “jannatning orzusiga berilib, jahannamning tubiga tikilganlarning kulgili hollariga kishining qarag'usi



kelmaydir”, “zolim o'rinni bir kun mazlum oladir – olov oyoqdan yiqilg'ach, joyini kul egallaydi” kabi satrlaridan Fitrat mohirona foydalanadi.

Yoshlar uzoq davom etgan suhbat yakunida ona Turkistonning ayni damdagi ijtimoiy-siyosiy holati islohotga o'ta muhtoj, degan xulosaga keladi. Majlis tugab, Qutlug' va Rustam Hamiddan ketish uchun izn so'raydi. Ikki do'st zinadan tushar ekan, muallif shunday yozadi: “eshikdan chiqib, o'liklar dunyosiga o'xshagan jimjit ko'chalarga kirib yura ketdilar”. Ushbu jumladagi har bir ibora ramzdor: “o'liklar dunyosi” – chorasizlik, loqaydlik, ilmsizlik orqasidan tiriklarning yashashi o'limdan battar holga tushib

qolgan o'lkani; “jimjit ko'chalar” – kurashchanlik kayfiyatining tanazzulga uchrayotgani, vahm va dahshat tillari va dillariga qulfi urgan sharoitni; “yura ketdilar” birikmasi esa aziz jonini fido qilib bo'lsa ham oldinga yurishday sharaflil tanlovni aks ettiradi.

Asar “Mumkinmi?!?” so'rovidan boshlanib, “xayr, xo'sh” bilan yakunlanadi. Bu kinoya bo'lib, “mumkinmi?!?” insonning “men”i qarshisiga qo'yayotgan savoli; so'nib borayotgan iroda va umid oldiga qo'yayotgan ma'naviy talabdir. Mazkur kursdan nigoh tashlanganda, “mumkinmi” so'zi “nahotki mumkin bo'lmasa” degan aks mohiyatni ham anglatadi. Asarning xotima qismida yozilgan “Yana kelasiz”dan murod erk uchun kurashning davomiyligiga ishora.

Fitrat asari uchun Mirzo Abdulqodir Bedil ijodini asos qilib olgani behikmat emas, albatta. Uning asarlarida inson erki, yurt ozodligi kabi tushunchalar murakkab, lekin juda asosli falsafiy nuqtayi nazardan talqin etilgan. Bedil inson haqiqiy erkinlikka faqat ma'rifat orqali erishadi, deb hisoblaydi. Bu esa jadidlar faoliyatining negizini tashkil etgani sir emas. Buyuk shoir va faylasuf yurt ozodligi inson ongi va ruhining ozodligidan boshlanadi, deb hisoblagan. Uningcha, inson o'zini anglamaguncha, yurt erki haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Kamol HAKIMOV,
adabiyotshunos

“YOZARLAR ANI
AHKOMIDAN AHKOM...”

O'tgan asrning 70-yillarida Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) o'zbek filologiyasi fakultetida salohiyatli ilmiy-pedagogik muhit shakllangan edi. G'ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov kabi ustozlar XX asr boshidagi milliy adabiyotimizga bo'lgan qarashlarni yangiladi. Dastlab Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Is'hoqxon Ibrat, Cho'lpon, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Avloniy, Kamiy, Vadud Mahmud kabi adiblar ijodiga e'tibor qaratildi. Begali Qosimov jadidlik harakati negizidagi adabiyot muammolarini izchil va tizimli o'rganishga kirishdi. Sharif Yusupov Furqat va ma'rifatchilik adabiyotini, Ulug'bek Dolimov jadid pedagogikasini, Boybo'ta Do'st-qorayev jadid matbuotini, Shuhrat Rizayev jadid dramaturgiyasini, Bahadur Karimov jadid tanqidchiligini tadqiq etdi.

Begali Qosimov tashkil etgan “Milliy uyg'unish davri o'zbek adabiyoti” kafedrasida bu ishlar ko'lamini yanada kengaytirdi. Natijada, shu nomdagi darslik yaratildi.

Qizg'in va mashaaqqatli jarayonda Ulug'bek Dolimov munosib hissasini qo'shdi. Xususan, Is'hoqxon Ibrat adabiy merosining xalqimizga qaytarilishi va targ'iboti bevosita olimning ilmiy-ijodiy faoliyati bilan bog'liq.

Kimki jadidlar hayoti va ijodi tadqiqiga xolis yondashsa, o'zi ham ularning millatparvarlik va ma'rifatparvarlik “dardi”ni yuqtirib olardi. Bu dard ilmini ulug'laydi, qalbni poklaydi, shaxsni kamolot sari yetaklaydi. Ulug'bek domlaniy “dardmand” bo'lganiga ham yarim asrdan oshdi. Ustozimizning asl olimlarga xos kamtarligi va ilm olamidagi viqori bizni haligacha hayron qoldirib keladi.

Aslida, bu fazilatlar faqat kasb taqozosiga ko'ra shakllanmagan, balki qondan ham o'tgan ekan-da. Ustozning “Ahli irfon” (Dolimovlar sulolasi) avtobiografik memuarini o'qigach, tarbiyaning ma'naviy-tarixiy asoslari haqida to'liq tasavvurga ega bo'ldim. Kitobdagi ayrim epizodlarni sizga ham ilindim.

Ulug'bek domlaniy katta bobolaridan bo'lgan Xaytabek Amir Umarxon davrida Qo'qon madaniy-ma'rifiy muhitini yaratishda ishtirok etgan. Davr bo'ronlarida Toshkentga kelib qolgan bek va uning avlodlari bu yerda ham ilm-u ijod bilan mashg'ul bo'ladi, ziyolilarni moddiy qo'llab-quvvatlashda davom etadi. Keyinchalik mustamlakachilarga qarshi kurashda halok bo'lgan shahidlar, qatag'on etilgan fidoiylar orasida Xaytabek avlodlarining ismlarini ham ko'rish mumkin.

Bu sulola vakillari sovetlarga qarshi oshkora kurashish imkonsizligini anglab, jadidlardan o'rnak oladi va ma'rifat targ'ibotiga kirishadi. Bor kuchini xalq farzandlarini ilmiy qilishga, ularning jismoniy va ruhiy dardlariga shifo topishga sarflaydi. Bu bejiz ketmadi, albatta. Adabiyotshunos Subutoy Dolimov, akademik To'rabek Dolimov va tibbiyot bo'yicha qator professorlar qoldirgan ilmiy meros xalq mulkiga aylandi.

“O'zbekiston maktablari tarixi” kitobi bugungi ta'lim tizimining mustahkam ildizlari qay davrlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Tarixning qaysi davrida maorif oqsadi, bunga nimalar sabab bo'ldi, maorif yuksalgan davrlarda qanday

yangiliklar sodir bo'lgani hayotiy misollar bilan dalillanadi.

Tasavvurimizdagi maktablar mintaqimizda bevosita Ismoil G'aspralining Turkistonga bo'lgan tashriflaridan keyin yuzaga kelgan. Jadidlar yangi usul maktablarini ochib boshladi. Bunga xonlar, vazirlar va zodagonlar ham xayrixohlik bildirdi. Xususan, Xiva xoni Muhammad Rahimxon hamda vazir Islomxo'ja qo'llovi bilan Xorazmda 1891-yildayoq dastlabki jadid maktabi ochildi. Shahzoda Isfandiyor ta'limni shu maktabdan boshlagan.

G'asprali tomonidan ilgari surilgan madrasalar islohoti o'rta asrlar an'analari bilan qotib qolgan ta'lim siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ammo o'quv yilini olti oydan to'qiz oyga uzaytirish, bir martalik imtihon, mudarris, oshpaz, xizmatchilarga tizimli maosh tayinlash, dunyoviy fanlar ulushini oshirish, o'quvchilarni gazeta va teatrga oshno qilish chor hukumatiga ma'qul bo'lmadi. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatiga zid jadid maktablarini yopa boshladi.

Sovetlar davrida ham ish silliq ko'chgani yo'q. Garchi biroz erkinlik berilgan bo'lsa ham vaqtinchada edi. Tez orada jadidlar boshida qora bulut to'plandi va ularning ta'lim siyosati keskin tanqid ostiga olindi. Kitobda ana shu davr haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ulug'bek Dolimov har bir masalaga xolis yondashishga, hissiyotga berilmaslikka, olim ko'zi bilan qarashga harakat qiladi va buni uddalaydi ham. Masalan, sovet ta'lim siyosatining ijobiy va salbiy tomonlari, bu tizimning milliy maorif an'analarga zid jihatlarini ham ko'rsatib beradi.

Kitobning so'nggi qismida Mustaqillik davri ta'lim siyosatida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. “O'zbekistonda maktablar tarixi” kitobi o'zbek maktablari tarixining vujudga kelish omillari, shakllanishi, ta'lim metodologiyasi haqida o'quvchida yorqin tasavvur va aniq tushunchalarni shakllantiradi. Shu paytgacha nashr bo'lgan ta'lim xrestomatiyasi va ta'lim metodlari tarixiga oid darsliklardan farqli ravishda kitobga ijodiy yondashilgan, matn keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Ushbu kitob maorifshunosligimiz uchun fundamental asarlardan biri sifatida kelgusi ta'dqiqotlarga ishonchli va boy manba bo'lib xizmat qiladi. Yosh olimlar bu asar orqali yo'lni boshidan bosib o'tishga majbur bo'lmaydi, ular haqida joyidan rivojlaniradi. Navoiy hazrat Ulug'bek “Zij”i haqida “yozarlar ani ahkomidan ahkom” deb yozgandi. Maorifshunoslarimiz uchun ham Ulug'bek Dolimov kitobi mayoq vazifasini o'tasa, ne ajab.

85 yoshini qarshilayotgan Ulug'bek Dolimov hamon o'zbek maorifi tarixi, ta'lim uslublarini o'rganish va tadqiq etishdan to'xtaganini yo'q. Bu ham bo'lsa jadid ustozlarining imkon bor ekan, Vatanga va xalqqa xizmat qilish kerak, degan saboqlari mahsulidir. So'z yakunida Ulug'bek domlaga sihat-salomatlik, yangi ilmiy izlanishlarida kuch-quvvat, kitobxonlar va ilmsevarlarga esa ustoz kitoblaridan ko'pdan ko'p manfaatlar yetishini tilab qolamiz.

Ulug'bek SULTON,
filologiya fanlari nomzodi



“Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o'qilgani.”

Asqad MUXTOR



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TAVALLUDINING 150 YILLIGI

ALLOMANING BOQIY TIMSOLI

Turkistonda bir necha yillar davomida sovet bolsheviklari tomonidan “Bosmachilik harakati” deb atalgan, aslida esa milliy istiqlolchilik ruhidagi harakatlar hamda “Milliy ittihad” deb nomlangan ayblov ishlari natijasida – 1917–1924 yillar oralig'ida Usmon Xo'ja (1878–1968), Sadriddinxon Mufti Sharifxo'jayev (1878–1946), Zakiy Validiy To'g'on (1890–1970), Tohir Chig'atoy (1902–1987), Abdulvahob O'qtoy (1904–1962) va boshqa ziyolilar vatanni tark etib, xorijda ham ijtimoiy-siyosiy faoliyat olib borishga majbur bo'ldilar.

Ular Turkiston xalqining mustaqillikka oid talablarini jahon jamoatchiligiga yetkazish, dunyo bo'ylab tarqalib ketgan muhojirlarni umumiy fikr va maqsad atrofida birlashtirish yo'lida katta sa'y-harakatlar qilib, ezgu maqsadlarini amalga oshirishda muayyan yutuqlarga erishdilar.

Bu yo'lida “Yangi Turkiston”, “Yosh Turkiston”, “Milliy Turkiston”, “Turkiston sasi”, “Sadoyi muhojirin” kabi ko'plab jurnal nashr etildi. Ularda Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar va mulohazalar ham muntazam e'lon qilib borildi.

Xususan, Munavvar qorining Toshkentdagi “Namuna” maktabida tahsil olgan Abdulvahob O'qtoy o'zining “Yosh Turkiston” jurnalida chop etilgan “Turk gazetachiligi” nomli maqolasida Behbudiyning matbuotchilik faoliyati xususida quyidagilarni yozadi: “Qozoq'dan so'ng-ra chiqaril'g'on gazeta “Samarqand”dir va Samarqandda chiqarilmishdir. Bu gazetani chiqarg'on zot Turkiston jadidlik harakatida o'ziga xos o'r'in tutg'on islohotchilarimizdan marhum muftiy Mahmudxo'ja Behbudi afandidir. “Samarqand” gazetasi o'z so'zlari ila aytganda “Mahalliy turkiy va forsiy o'rta shevada ilm, fan, adabiyot, tijorat, hunar va ziroatdan, Rusiya ahvoli va madaniyati va xorijiya mamlakatlari holdan va olami islom tirikligindan yozg'uvchi musavviri jarida” edi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatni ko'p yaxshi anglag'on va gazetachilik ishlarida anchag'ina tajribaga ega bo'lg'on Mahmudxo'ja Behbudi o'z gazetasiini senzura balosis'ga uchratmaslik uchun siyosiy masalalarga oz murojaat etmishdir. Murojaat etganda ham e'tidol va ehtiyot bo'lgan holda qilgan. “Samarqand” gazetasi eng ko'p madaniy, iqtisodiy va tirikchilik ishlariga oid masalalar ila mashg'ul bo'lib, haftada ikki marotaba chiqmishdir. Biroq bora-bora moddiy jihatdan siqilib 45-soni dunyo yuziga chiqqondan so'ng o'z-

o'zidan to'xtashga majbur bo'lmishdir. Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning bosh muharrirligi ostida chiqqon bu gazetaga Sayyid Rizo, Hoji Muin, Rojii, Siddiqiy, Nurmuhammadbek, Nusratulloh Mullo, Mulla Ibrohim Sayyid Kamol o'g'li va boshqalar qatnashg'onlar”.

“Milliy Turkiston”da chop etilgan Boymirza Hayitning “Milliy huquq va Turkistonda sovet davlati apparati” nomli maqolasi ham dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Muallif maqolaning kirish qismida Chor Rusiyasi Turkiston xalqini istaganicha ekspluatatsiya qilish uchun barcha yo'llarni qidirganligini, u xalqimiz ustidan o'zining harbiy diktaturasini o'rnatib, kolonial-imperialistik siyosatini ochiqdan ochiq yuritganligini, Chor Rusiyasi o'ruslarning ustunligini boshqa xalqlar ustida o'rnashtirish uchun barcha diqqat-e'tiborini bu ishga qaratganligini, garchi keyinchalik Chor hukumati ag'darilgan bo'lsa-da, uning o'rnga “bolshevizm” degan ikkinchi bir balo Turkistonga olib kelinganligini, biroq bu bilan hech nima o'zgarmasdan, o'tmishdagi kolonial siyosat ilgarigidan ham keskinroq tus olganligini yozadi.

Boymirza Hayit ushbu maqolasida xuddi Mahmudxo'ja Behbudi singari sovet sotsializmining asl yuzi va qiyofasi xususida o'tkir mulohazalar yuritgan holda, bolsheviklar “dohiysi” Lenin tomonidan ilgari surilgan “shovshuv”ga boy bo'lgan ta'limotlarning tagi puch ekani, bu haqda o'z paytida bolsheviklar hali hokimiyatni egallamaslaridan avval Behbudi ham ogohlantirganligini qayd etib, bolsheviklar tomonidan ilgari surilayotgan g'oya va takliflar Turkiston xalqining milliy qadriyat va urf-odatlariga mutlaqo zid ekanligini ochib tashlaydi.

Jumladan, muallif quyidagilarni yozadi: “Lenin: “Biz milliy o'z-o'zini belgilash huquqini, ya'ni millatlarning mustaqil bo'lishigini istaymiz, biroq mayda bo'lib yoki kichik davlat qurishni emas, balkim biz ulkan davlat va haqiqiy demokratik va internatsionalchilik prinsipidagi millatlar huquqini istaymiz”, deydi. Leninning bu so'zlari marksizmning millat masalasidagi basharasini [ochiq] ko'rsatib turmoqda: Agar millat o'z huquqiga, qonuniga, erkinligiga o'zi ega bo'lmasa, uning nima foydasi borki, “millatni o'zini o'zi belgilash huquqi va uning mustaqil bo'lishligi” haqida so'z yuritadir? Buning biz uchun hech bir foydasi yo'qdir. Millat o'zining huquqini, erkinligini internatsionallikdan yoki demokratizmdan izlab topa olmaydi. Millatning milliy huquqi yoki mustaqil bo'lib yashashi bularga bog'liq emasdir. Leninning fikricha, millatning mustaqil bo'lib chiqishi katta bir davlat qurishlikdan iboratdir. Xuddi mana

shunday prinsip asosida SSSR qurilgan – tashkil etilgandir”.

“Milliy Turkiston” jurnalining 1950-yil 66-sonida “Erturk” taxallusi ostida e'lon qilingan “Mahmudxo'ja Behbudi” maqolasi ham katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy materiallardan biridir. “Erturk” o'z maqolasida Behbudiyning faoliyatiga doir yangi va qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Uning yozishicha, Behbudi Samarqand shahrining buyuk bir diniy oilasida tug'ilib, ul birinchi tahsilni Samarqandda, yuqori tahsilni esa Buxoro madrasasida ko'rgan edi.



Marhum muftiy Mahmudxo'ja Behbudi.
“Yosh Turkiston” jurnali, 45-son. 1933-yil.

Ul o'zining madrasa o'quvi davrida Turkiston “qorong'u kechalarining yorug' yulduzi bo'lgan” Ahmad Ma'zum (1816–1896)ning ko'lyozmalarini ko'proq mutolaa qilar edi. Bundan tashqari, u Buxoro ulamolardan Ikrom Domlaning taraqqiyparvar tushunchalariga tarafdor bo'lgan. Shuning uchun ham Behbudiya 1910-yildayoq Turkistonda o'sayotgan jadidlik harakatiga qiziqish boshlangan. Shu boisdan u shu yilning o'zida “Buxoro maorif jamiyati”ga borib qo'shilgan.

Shu bilan birga maqolada Behbudiyning rus tilini yaxshi bilganligi sababli Abdurauf Fitratning Istanbulda 1911-yilda fors tilida yozilib chop etilgan “Sayyohi hindi” nomli asarini 1912-yilda ruschaga tarjima qilgani, 1913-yilda “Samarqand”, 1913–1915-yillarda “Oyina” nashrlarini chop ettirganligi, Ubaydulla-xo'ja tomonidan asos solingan “Sadoyi Turkiston” gazetasi asohifalarida ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib borganligi qayd etib o'tilgan.

Maqolada Behbudi eng oldingi saflarda turib Turkiston xalqi haq-huquqlarini talab qilgan fidoyi va xalqparvar inson, zulmga qarshi tog'dek turib bergan alpqomat shaxsiyat, Turkiston Muxtoriyatini eng ko'p targ'ibot qilgan jurnalist, milliy istiqlolchilik harakatining siyosiy va ma'naviy yo'lbo'shchisi sifatida tasvirlangan. Muallifning yozishicha, Turkistonda boshlangan milliy istiqlolchilik harakatining bosh lideri Mahmudxo'ja Behbudi edi. Jumladan, maqolada quyidagilar keltiriladi: “Turkistonda “Beklar” harakati (bosmachilik)ning boshlanishi

Behbudi uchun ruhiy ozuq berdi. U qurolli kuchlar bilan mamlakatimizning ozod bo'lishiga ishonch hosil qildi. Behbudi 1919-yil 10-yanvar kuni Toshkentda bo'lajak qo'zg'olonga Turkiston yigitlarini Chotqol tog'ida bo'lgan bir bo'lagini yordamga kelishini uyushtirish vazifasini olgan edi. Biroq qurolli kuchlar yetib kelmasdan avval qo'zg'olon boshlandi va tez orada yengildi. Chotqoldagi Turkiston qurolli kuchlari Behbudiyning istagi bo'yicha o'z yurishlarini to'xtatdilar”.


Ayniqsa, “Erturk” Behbudiyning o'dirilishi tarixiga to'xtalar ekan, juda qiziq faktlarni keltirib o'tadi. Jumladan, shunday yozadi: “Behbudi Qarshi shahrida o'z oldiga qo'ygan vazifalarini bajarishga urinar ekan, qizil Rusiyaning Buxoro elchixonas xizmatchisi Utkin vositasi ila amir tomonidan tutildi. Behbudi amirning Qarshi shahridagi voliysi Nuriddin Og'aliq tomonidan 1919-yilning 25-martida vahshiyona o'dirildi. Bul esa bir niqob edi, xolos. Haqiqatda esa Behbudiyni amir vositasi ila o'dirish rus bolsheviklarining sovet komissariyati tomonidan uyushtirilganligi aniqlandi. Buni sobiq Turkiston Sho'ro Jumhuriyatining harbiy vaziri Osipov 1919-yil Buxoroga kelgan vaqtida “Yosh buxoroliklar jamiyati”ga bergan bayonnomasida bildirgan edi”.

Behbudiyning obro'-e'tibori shu darajada baland ediki, keyinchalik bolsheviklar uning nomidan bir necha yillar mobaynida o'zlari-ning chirkini maqsadlarini amalga oshirish yo'lida foydalanadi. “Erturk” maqolasida bu to'g'rida ham ma'lumotlar keltirar ekan, yozadi: “Bolsheviklar Behbudi nomidan g'ayri uzviy ravishda foydalanib keldilar. Ular 1934-1935-yillargacha Behbudiyni Turkistonda “Kommunizm mafkurasining boshlang'ich xodimi” deb ko'rsatib keldilar. Hatto uning adabiy faoliyatini maktablarda o'z ko'z qarashlari bo'yicha o'rgatishga ham yo'l qo'yib berdilar. Xalqni Sovetga tamoman xayrixoh qilib bog'lab olishlik uchun Qarshi shahrini Behbudi deb o'zgartirishgacha yetib bordilar. Shunday qilib Behbudi nomi 1935-yilgacha bolsheviklarning og'izlarida har kuni zikr qilinib kelindi. Qachonki bolsheviklar mafkura maydonida yengib chiqqan kuch bo'lib o'taga chiqqanidan keyingina Behbudi nomi so'zlashlikdan voz kechdilar. Agar u haqida gapirsalar ham uni “sovet dushmani”, “burjua millatchilar mafkurachisi va namoyondasi”, “Angliya imperializmining agenti” deb so'zlaydigan bo'ldilar. Biroq Mahmudxo'ja Behbudiyning yosh avlodga qoldirgan nasihatlari millatimizning qalbida shon va sharaf-la har doim saqlanib qolajakdir”.

Xulosa o'rinda ta'kidlaganda, Mahmudxo'ja Behbudi hayoti va faoliyati zulm va istibdod natijasida Turkistonni tark etgan muhojir jadidlar uchun ibratli hayot maktabi o'laroq xizmat qildi. Bu ulug' siymoning bosib o'tgan sharaflari yo'li muhojirroda yashab, vatan ozodligi yo'lib kurashayotgan minglab turkistonliklarning qalbiga nur va shukuh solib turdi. Muhojir ziyolilar matbuotida chop etilgan o'nlab maqolalar ham shundan guvohlik bermoqda.

Muslimbek ALIJONOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'qituvchisi

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Muhammadamin Sohibov – 1902-yilda Andijon shahrida tug'ilgan, millati o'zbek. Yer-suv islohotiga qadar 100 tanob yeri bo'lgan, quloqqa tortilgan. 1920-yili milliy ozodlik harakati vakillarini qurol-yarog' bilan ta'minlagani uchun 5 yilga qamalagan.

Keyinroq Lenin tuman ijroiya qo'mitasi xalq xo'jaligi hisob bo'limi instruktori sifatida ishlagan. 1937-yil 23-avgustda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi tuman bo'limi tomonidan hibsga olingan. U sovetlarga qarshi “Haqiqat” guruhi, “Milliy ittihad” tashkiloti bilan aloqada bo'lganlikda ayblanib, O'zSSR IIXK huzuridagi “Uchlik”ning 1937-yil 13-noyabrda qarori bilan otuvga hukm qilingan.

Abush Almasov – 1903-yilda tug'ilgan, oliy ma'lumotli. Yuqori salohiyati sababli juda erta rahbarlik lavozimlariga tayinlanadi. Bir necha yil Marg'ilon shahri va Bag'dod tumani partiya qo'mitasining birinchi kotibi bo'lib ishlaydi.

1933-yilda O'zSSR Markaziy Komitetining sobiq birinchi kotibi Akmal Ikromov tomonidan “Milliy istiqlol” tashkilotiga jalb etilgani uchun 1937-yil 15-oktyabrda oliy jazo beriladi. Hukm o'sha kuniyoq ijro etilgan. 1958-yil 25-noyabrda reabilitatsiya qilingan.

Abdulla Ro'ziboyev – 1900-yilda Olmaota shahridagi savdogarlar oilasida tug'ilgan. O'zSSR Xalq maorifi xalq komissari, Bag'dod tuman partiya qo'mitasi kotibi lavozimlarida mehnat qilgan.

“Milliy istiqlol” tashkilotiga Akmal Ikromov tomonidan jalb etilganlikda, sovet hokimiyatini ag'darish hamda O'zbekistonda burjuaziya tuzumini tashkil etishda ayblangan. U SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor majlisi tomonidan 1938-yil 14-oktyabrda otuvga hukm etgan. 1957-yil 20-noyabrda reabilitatsiya qilingan.

Uzoqboy Mamayusupov – 1886-yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan, millati o'zbek, ma'lumoti o'rta. So'x suv xo'jaligi tizimi boshqarmasi boshlig'i bo'lib ishlagan.

“Milliy istiqlol” tashkilotiga Sodiqjon Boltaboyev tomonidan jalb etilgani, O'zbekistonda sovet hokimiyatini ag'darishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullangani uchun hibsga olingan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1938-yil 8-oktyabrda sayyor majlisida otuvga hukm qilingan. 1958-yilda reabilitatsiya qilingan.

Mahmud Madraimov – 1898-yilda Qo'qon shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Qo'qon shahar partiya komitetida instruktor, prokuror bo'lib ishlagan. O'zbekiston bosh prokurori Shamsiddin Badriddinov qatag'on qilinganida Mahmud Madraimov ham millatchi va aksilinqilobchi sifatida ayblangan va lavozimidan chetlatilgan.

“Milliy istiqlol” tashkilotining a'zosi sifatida kolxozlarga milliy ozodlik harakati vakillarini joylashtirish, ularni yashirish va qo'llab-quvvatlashda ayblangan. 1938-yil 14-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor majlisi qaroriga ko'ra otuvga hukm qilingan. 1958-yilda reabilitatsiya qilingan.

Tursun Ahmadxo'jayev – 1898-yili Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Namangan uyezdi-shahar ijroiya komitetining raisi vazifasida faoliyat ko'rsatgan.

Unga nisbatan Sovet hokimiyatiga qarshi kayfiyatda bo'lgani, 1936-yili Namangandagi isyonchi tashkilotning a'zosi sifatida sovet organlariga qarshi kurash olib borganlikda ayblanib 1937-yil 27-noyabrda tergovchilar tomonidan 12676-sonli ish qo'zg'atilgan.

Oqibatda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda o'tkazilgan 1938-yil 14-oktyabrda sayyor majlisida 36 nafar mahbus otuvga hukm etilgan. O'tilganlar ro'yxatining sakkizinchisi Ahmadxo'jayev Tursun bo'lgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi.

(Davomi kelgusi sonda).

TARIX VA TAQDIR

“Padarkush” dramasidagi badavlat, ammo ma'naviy qashshoq ota obrazini orqali Mahmudxo'ja Behbudi zamona boylarining tipik obrazini yaratgan. Ammo istisnalar ham yo'q emasdi. XX asr boshlarida mintaqada ma'rifatli zodagonlar ham topilardi. Ulardan biri nurotaliq Qozoqboy bo'lib, yetti avlodiga yetadigan xazinalarga ko'milib yashar edi. Shunga qaramay, o'g'li Boltaning erkatoiy, yalqov va ishratparast bo'lib ulg'ayishini istamaydi. Erta kundan ilmga oshno qilish harakatiga tushadi. Bu yo'lida tajribali muallimlarga shogirdlikka berib, farzandini hofizi Qur'on va arab tili bilimdoni qilib tarbiyalaydi. Qozoqboy xat-savodi haddi a'losiga yetgan dilbandini yoniga olib, 1909-yilda og'ir va mashhaqqatli haj amallarini ado etadi. Dunyo kezib qaytgan Boltani hamqishloqlari Hoji Bolta deb e'zozlashardi.

Hoji Bolta zamonasining fozillaridan bo'lgan. U Fayzullo Xo'jayev bilan Mir Arab madrasasida o'qigan. Ikki maslakdosh jadidlar safida yurti ozod qilishga, maorifda islohotlarni amalga

oshirishga bel bog'lashadi. Xo'jayev siyosiy faoliyatga sho'ng'ib ketgan bir paytda Bolta 1916–1920-yillarda madrasada yangicha usullar asosida dars bera boshlaydi.

Amirlik tugatilgach, sovet siyosati voqealar rivojini teskari tomonga aylantirib yubordi. Nurotaning Osiyo baland mahallasida istiqomat qilgan Bolta mudarris 1932-yilda soliq komissiyasi yig'ilishi qarori bilan quloq qilinadi. Ilmi uni ochlik va qashshoqlikdan saqlab qoladi. Ammo vaqt o'tib ana shu ilmi uchun ta'qibga uchraydi.

1937-yilga kelib Fayzulla Xo'jayev qamoqqa olinadi. U bir yo'lini qilib, do'stini ogohlantiradi: “Hoji, qatag'on ro'yxatida siz ham borsiz. Xatni olgach, uni yo'q qiling va zudlik bilan o'zingizni chetga oling”.

Bu xabar yetgach, Hoji Bolta katta o'g'li Ahmad bilan yashirin yo'llar orqali Dushanbega ketadi. Ertasi kuni NKVD va GPU odamlari Gulov degan “qizil komissar” boshchiligida Boltaning ota uyiga bostirib keladi. Uy sohibining qochgani aniq bo'lgach, oilasi siquvga olinadi. Oqibatda, ikki gektarlik hovli va bor

mol-mulk musodara qilinib, bola-chaqalar bir juft ko'rpa-yostiqlik bilan ko'chada qoladi.

Ko'p o'tmay Dushanbada ham qora kunlar boshlanadi. 1939-yilda Hoji Bolta do'sti Sadriddin Ayniydan maxfiy maktab oladi va Qarshi shahriga keladi. Iskovuchlar uni dunyoning narigi chetidan ham topib otishga qasd qilgandi. Biroq ulardan oldin, 1940-yilda ajal o'qi nishoniga bexato tegdi...

Ayniyning xayrixohligi beg'araz bo'lib, bir muddat oldin Hoji Bolta domlaning Muslihiiddin ismi o'n olti yashar ilmi, faol jiyani bir oydan ko'proq uyida yashirib qo'ygan edi. Bu yigit ham jadidlar harakati faollariidan bo'lib, go'zal she'rilar yozardi. Uning fors-tojik tilidagi bayti yozilgan dastxat o'zi turgan boloxona devorida qolgan. Mazmuni bunday:

Bino devoriga yozdim izhora,
Bu men bechoradan
bo'lar nishona.
Bilsinlar, bu miskin
nechun darbadar:
Uni sarson etdi rasvo zamona.

Behbudiyning “Oyina” jurnali O'rta Osiyoliklarni Parijdan Yaponiyaga qadar bo'lgan mamlakatlar bilan tanishtirgan bo'lsa, “Sayohat xotiralari” Turkiston ahli uchun asosan musulmonlar yashaydigan Sharqni kashf qildi.

Ingebord BALDAUF



Boshlanishi 1-sahifada.

Ayniqsa, mashhur san'atkorlarning chekka hududlardagi aholi bilan uchrashuvlari, ziyolilar bilan bo'lgan suhbatlar esda qolarli voqealik bo'ldi.

“Inson qadri”, “Dildagi gaplar”, “Maslahat oshi”, “Farovon hayotga ilk qadam”, “Baxtli bolalik sharafiga”, “Shijoat” kabi loyihalar, “Kitob marafoni” aksiyasi, “Qasamyod” spektakli namoyishi, “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostidagi gala-konsert dasturlarining xalqchilligi va rang-barangligiga alohida ahamiyat qaratilgan.

– 34 yil tarix uchun nihoyatda qisqa davr, biroq shu vaqt ichida millat taqdiri, tarixi, kelajagi uchun juda katta ish qilindi. Xususan, Uchinchi Renessans g'oyasi, Yangi O'zbekiston g'oyasi – bular dunyo omonat bo'lib turgan bir paytda yangi tafakkurdagi millatni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan, butunlay yangicha fikr qiladigan fuqarolik jamiyati bilan bog'liq juda katta siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy hodisadir, – deydi siyosiy fanlar doktori, professor Narzulla Jo'rayev. – Festival doirasida men yurtdoshlarim nigohida kelajakka bo'lgan katta ishonch, umidni ko'rdim. Ana shu holat jamiyatning istiqbolini ham belgilaydi, davlat qudratiga asos bo'ladi. Bu kabi festivallar xalqni birlashtiradi, bir maqsad yo'lida jam qilibgina qolmasdan, ularda ona yurtga cheksiz muhabbatni uyg'otadi.

O'zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova ham Vatan ichra safarlarda tug'ilgan taassurotlari bilan bo'lishdi:

– Hududlarga chiqar ekanmiz, xo'roz barcha yerda bir xil qichqirayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Tuman markazida yo'llar qanday ravon



bo'lsa, chekka qishloqlarda ham ana shu sifatdagi ravonlikka guvoh bo'lyapmiz. Tog'li hududlar aholisi markazga qatnashga qiynalar edi. Ammo bugun bunga ehtiyoj qolmabdi: barcha kerakli do'konlar, xizmat ko'rsatish shoxobchalari qishloqning o'zida tadbirkorlar tomonidan muhayyo qilinmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanida “Maslahat oshi” loyihasi amalga oshirildi. Unda jamiyatda milliy urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy hayot talablariga mos holda davom ettirish, isrofgarchilikning oldini olish, ijtimoiy birdamlik va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlash maqsadida oilaviy marosimlar madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ochiq muloqot va targ'ibot ishlari o'tkazildi.

Toshkent viloyati Olmaliq shahrida yoshlar va keng jamoatchilik qalbida milliy g'urur, Vatanga muhab

bat, birdamlik tuyg'ularini mustahkamlash, ijtimoiy faollikni rag'batlantirish, ijodkor yoshlar va san'at vakillarining iste'dodini keng ommaga namoyish etish maqsadida gala-konsert o'tkazildi. Dasturda faqat



taniqli san'atkorlar emas, mahalliy ijodkorlar, bolalar ansambllariga ham keng o'rin ajratildi.

Shu o'rinda yana targ'ibotchilari-mizning fikrlarini keltirib o'tishni joiz topdik:

– Festival doirasida xalqimizni

milliy qadriyatlar va ma'naviy boyliklarga yaqinlashtirish, ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undash, oilaviy va jamiyatdagi birdamlik hamda totuvlikni mustahkamlash kabi ezgu maqsadlar ilgari suril-



moqda, – deydi yuridik fanlar doktori, professor Feruza Muhiddinova. – Huquqshunos olim sifatida loyihalar doirasida aholiga ajrimlarning oldini olish, yoshlarning huquqiy ongini oshirish, inson huquqlari, erkinligi va manfaatlarini tamoyillari

haqida ko'nikmalar berib o'tdim. Aytish kerakki, xalqning ko'zida quvonch, o'z huquqiy savodxonligini oshirishga bo'lgan qiziqishi menda katta taassurot qoldirdi.

Festival doirasida “Qasamyod” spektakli jamoatchilikka taqdim etildi. Sahna asari yosh avlodga tarixiy xotiraga hurmat, yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Pyesaga Bahrom Irzayevning “Germaniyada ta'lim olgan Turkiston yoshlari” kitobi asos qilib olingan. Unda o'tgan asrning 20-yillarida jadidlar asos solgan “Ko'mak” uyushmasi tomonidan o'qishga yuborilgan talabalarning ayanchli taqdiri ochib berilgan.

– Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi musiqali drama teatrida namoyish etilgan “Qasamyod” spektakli menda katta taassurot qoldirdi, – deydi O'zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova. – Professional aktrisa sifatida men ushbu sahna asarini juda yuqori baholayman. Ona Vatan ravnaqi yo'lida jonini fido qilgan jadid bobolarimiz, qatag'on qilingan millatimiz farzandlarining mashaqqatli va sharaflil hayot yo'lidan bugungi yoshlarimiz ham ibrat olishi, yaratilgan keng imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib, vaqtini zoye ketkazmay o'qishi, o'rganishi, ilm-ma'rifatga intilishi lozim.

Albatta, bunday uchrashuvlar issiz ketmaydi. Chunki qayerda yashashidan qat'i nazar, inson hamisha muloqotga, dunyodan bo-xabar bo'lishga, zamona qadamiga o'z odimini chog'ishtirib ko'rishga tabiiy ehtiyoj sezadi. Shuningdek, bu kabi festivallar ijodkor ziyolilarga ham kuch va g'ayrat, ilhom-u shijoat baxsh etishi, shubhasiz.

Bahora AHMEDOVA

TILBILIM

BEKAT



Tilimizda ixcham va jozibali bir so'z bor – “bekat”, biroq u Navoiy asarlari yoki undan oldingi bitiklarda uchramaydi, demak, bu so'z keyingi davrlarda paydo bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da unga “tar”, ya'ni “tarixga oid” deb nisbat berilgan.

Tilimizda uzoq o'tmishdan yashab kelayotgan “bek-” o'zagi mavjud, uni biz hatto eng qadimgi turkiy bitiklarda ham uchratamiz. Mutaxassislarga ko'ra, bu so'zning dastlabki ma'nosi: “mahkamamoq, mustahkamlamoq”, eng qadimgi ko'rinishi esa “beg-” bo'lgan deb taxmin etiladi. Shu bois hozir ham tilimizda “berk” ham, “bek” ham bir ma'noda ishlatiladi. Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'otit-turk”da mazkur o'zakdan yasalgan ko'plab fe'llarni keltiradi. Aytaylik, “bōklādi” – bekitti, saqladi; “bōklāndi” – mustahkamlandi, turg'unlandi, qamaldi; “bōklātti” – qamattirdi, saqlashga buyurdi; “bōkydi” – bekitti, mahkamlandi. “Devon”da yana bir o'rinda “bek” o'zagiga sifat yasovchi “-yt” qo'shimchasi qo'shib yasalgan “berkitilgan” ma'nosidagi “bōkyt” so'zi ham keltirilgan: “jashut bōkyt – yashiriladigan, berkitiladigan narsa”. Hozir ham tilimizda “bekik”, “bekilmoq”, “bekitmoq” kabi fe'llar faol. Bu so'zning boshqa bir ma'nodoshi “yopmoq”, ya'ni: “eshikni bekil” va “eshikni yop” bir ma'noga ega.

Qadimda turk tillarida fe'l'dan ot yasovchi “-yt” qo'shimchasi ham bo'lgan, “Devon”dan bunga misol tariqasida “kezyt”, “köçyt”, “qachut”, “chökyt”, “kulut” kabi so'zlarni keltirish mumkin. “Kezyt”ning ma'nosi – “to'n” yoki “ustki kiyim”, hozirgi tilimizdagi “kiydi” fe'li “Devon”da – “kezi” shaklida keltiriladi, ya'ni “kezyt” – “kez-” (“ki-”) o'zagiga “-yt” ot yasovchi qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan yasalgan. “Köçyt” esa o'tmishda bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish vositasi – “ot-ulov” ma'nosini bildirgan, ya'ni “köch-” (“ko'ch-”) o'zagiga “-yt” qo'shimchasini qo'shib yasalgan, bu so'zni hozir ham “ko'chat” shaklida, faqat “ot-ulov” emas, ko'chirib ekiladigan niholga nisbatan ishlatamiz. Guvohi bo'lganimizdek, qadimgi turkiydagi ot

yasovchi “-yt” qo'shimchasi keyinchalik “-at”ga aylangan. Bunga misol tariqasida “ko'kat” (“ko'k”+“-at”), “egat” (“ek”+“-at”) kabi so'zlarni ham keltirish mumkin. Ba'zi o'zaklarga esa “-it”, “-it” qo'shilib fe'l'dan ot yasalgan (“uyat” – o'y+a+it, “yigit” – yig+it, “chigit” – chig+it, “chiqit” – chiq+it).

“Bekat” ham, bizningcha shu qoidaga ko'ra, “bek-” o'zagiga “-at”ni qo'shib yasalgan so'zdir. “Bekinmoq” fe'li lug'atda “o'zini panaga olmoq” deb izohlangan, “quyoshdan bekinmoq”, “yomg'irdan bekinmoq” deymiz, ya'ni “bekat” – usti bekitilgan yoki yopilgan, pana, yo'lida vaqtincha tin olish joyi. Shu ma'noda u fransuzcha “abribus”ga yaqin, fransuz tilida “abri” – “pana, boshpana”, “abribus” esa – avtobus kutladigan joylarda o'rnatilgan qurilma, boshpana, bekat. Qolaversa, “bek-” o'zagingin “berk”, “pana”, “bekinmoq”, “saqlanmoq”, “bekinib kutib turmoq” kabi lug'aviy ma'nolari bunday inshootlar xususiyatlariga to'la mos keladi (keyinchalik usmonli turkchasida “beklamoq” (“beklemek”) fe'lining “kutmoq” ma'nosi ham paydo bo'lgan).

XIX asr oxirida yurtimizga temir yo'l, pochta kabi yangi infratuzilmalar, shu bilan birga yangi atamalar ham kiritildi. Shunday atamlardan biri – “stansiya” (fr. “station”) o'ralarda o'shanda tilimizdagi “bekat” so'zi – “temir yo'l bekati”, “pochta bekati” tarzida qo'llanishi chinakam topilma bo'lgan. Bu so'z ayniqsa avtobus, tramvay, trolleybus, metro kabi yo'lovchi tashish transportlari yo'llaridagi yo'lovchi olish va tushirish manzillari uchun uzukka ko'z qo'ygandek mos kelar edi. Ammo sovet davridagi norasmiy cheklov, ruslashtirish siyosati oqibatida uning keng joriy etilishiga yo'l berilmagan, shu bois sovet davrida “avtobus ostanovkasi”, “metro stansiyasi”, “temir yo'l stansiyasi” deyish ko'proq udum bo'lgan.

Mustaqillikdan keyin bu so'zning ikkinchi umri boshlandi deyish mumkin, “metro bekati” yoki “yer osti bekatlari”, “avtobus bekati”, “temir yo'l bekati”, “bekatcha” (“polustanok”) kabi sovet davrida ko'proq badiiy asarlarda yashagan so'zlar hayotga to'laqonli qaytdi.

Abduvohid HAYIT

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Menimcha, odamzodning chekiga tushgan eng dahshatli fojia Vatanni himoya qila bilmaslikdir. Bunday ko'rgilik hech bir bandaning boshiga tushmasin.

Allohga shukr, bizda chegarasi mustahkam, manzillari obod ona Vatan bor. Barchamiz uning mehri, tafti, ardorg'i va siylovi bilan xushvaqtamiz. Peshonamizning olti qarichligi ham shundan. Dunyoda hamma uchun o'z vatanidan yaxshi joy topilmaydi.

Vatan yiqilganingda tog'dek yelkasini tutadi, ozor chekkaningda onang kabi beminnat mehr ko'rsatadi. Vatanning bo'lsa qadding bukimaydi, qilichdek tik va keskir bo'lib yashaysan. Shunday vatanni sevmay, qizg'onmay, asramay bo'ladingmi?

Unutm! Vatan bu... Unda erkin va erkalanib yashaysan, mol-davlatning bo'lmasa, undan najot kutasan. Sog'liging ketganda, murodingga yetolmaganingda unga murojaat qilasan. Uy-joying bo'lmasa, beminnat boshpana so'ray olasan. Yangilishsang, u to'g'ri yo'lga solib qo'yadi, onang kabi kechiradi. Surinsang,



INSONIY ISHDAN CHETDA QOLMA!

Vatan tuprog'iga qulaysan. G'olib bo'lsang, mukofotlarning eng zo'rini olasan, mag'lub bo'lsang, ruhlantiradi. Daraxt eksang, Vatan ichida betakror Vatan bunyod qilasan. Kimligingni Vatanningga qarab anglaydilar va tushunadilar.

Ko'rdingmi, Vatanning bor – shuncha narsang bor. Dunyoda sendan baxtli odam topilmaydi. Shuning uchun

Normurod MUSOMOV, jurnalist

“JADID BOBOMGA MAKTUB”

QIRQ MINGGA YAQIN INSHO SARALANMOQDA

Hurmatli mushtariy, xabaringiz bor, avvalroq “Jadid” gazetasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida e'lon qilingan “Jadid bobomga maktub” ijodiy tanloviga insholar qabul qilish jarayoni nihoyasiga yetganini ma'lum qilgandik.

Ammo yuzaga kelgan sharoit bois tanlov talabiga juz'iy tahrir kiritishga to'g'ri keldi. Birinchidan, tanlovga ijodiy ishlarni qabul qilish allaqachon yakunlangan bo'lsa-da, pochta orqali yuborilgan insholar tahririyatga bir necha kun kechikib kelganini hisobga olib, qo'shimcha maktublar yuborilgan sanasiga qarab qabul qilindi. Ikkinchidan, kelgan konvertlar ichidan besh-olti, hatto o'nlab daftarlar chiqdi. Bu esa bizni qayta hisoblashga undadi. Natijada, tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlar soni qariyb 40 mingga yetdi.

Ikki kun davomida malakali pedagoglardan iborat jamoa tahririyat binosida faqatgina pochtdan yuborilgan mingdan oshiq inshoni tekshirishga ulgurd. Shu bilan birga, 110 nafar o'qituvchidan iborat ikkinchi guruh bir haftadan beri, hatto hozir ham, maxsus bot orqali kelgan 38 mingdan ziyod inshoni tekshiryapti. Hech bir insho ziyrak ustozlarimiz nazaridan chetda qolmaydi. Birinchi bosqichda saralangan maktublarni jadidshunos olimlar, taniqli ijodkorlar, adabiyotshunoslardan iborat yana bir guruh o'rganadi va yakuniy xulosalarni taqdim etadi.



“Jadid” gazetasi tahririyati barcha ishtirokchilarga samimiy minnatdorlik izhor etadi! Tanlovga yo'llangan har bir maktub, har bir satr jadid bobolar merosiga bo'lgan chuqur ehtiromning yorqin namunasidir.

Tanlov g'oliblari o'quv yilining dastlabki kunlarida e'lon qilinib, tantanali ravishda taqdirilanadi.

MA'MURIYAT

Jadid
adabiy, badiiy va ijtimoiy fanlar gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



“SHAHI DLAR XOTIRASI” JAMOAAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 100

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 447

Lotin yozuvida – 11 653

Media kuzatuvchilar – 88 321

Buyurtma: G – 840.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz